

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUXANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

IQTISODIYOT FAKULTETI

“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

**“HIMOYAGA TAVSIYA
ETILADI”**

“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri
____ dots. A.B.Qurbonov
“____” _____ 2018 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakul’teti dekani
____ i.f.d., prof. A.F.Xurramov
“____” _____ 2018 yil

**JO’RAQULOV AZIMJON G’ULOM O‘G‘LINING
“AGROSANOAT MAJMUASI TARMOQLARI
FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHGA TIJORAT
BANKLARINING KREDITLARINI JALB ETISH”
(Ipoteka-Bank Qarshi shahar filiali misolida) mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: “Iqtisodiyot” (qishloq
xo’jaligi) ta’lim yo’nalishi
IV-kurs II-461 guruh talabasi
____ **A.G’. Jo’raqulov**

ILMIY RAHBAR:
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti,
i.f.n. _____ **N.M.Djalilova**

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

____ sonli bayonnoma “____” _____ 2018 yil

QARSHI – 2018 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishning ahamiyati va nazariy asoslari	8
1.1. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.....	8
1.2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlardan foydalanishning zarurligi	18
II bob. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishning amaldagi holati tahlili.....	29
2.1. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlash mexanizmini isloh qilish bosqichlari tahlili.....	29
2.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida kreditdan foydalanish darajasi tahlili.....	35
2.3. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlardan foydalanish tahlili.....	48
III bob. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishga tijorat banklarining kreditlarini jalb etishsamaradorligini oshirish yo'llari.....	63
3.1. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklarining kreditlarini jalb etish moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlari	63
3.2. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishni takomillashtirish yo'llari.....	69
Xulosa va takliflar.....	74
Foydalanilganadabiyotlar royxati.....	78

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakat aholisining iste'mol buyumlariga va ozik-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, eng avvalo agrosanoat majmuasi va bu majmuaning asosi bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlari, kishlok xo'jaligining iqtisodiyotimizdagi, hayotimizdagi o'rni bu sohani isloh qilishni yanada chukurlashtirishni takozo etmoqda. Qishloq xo'jaligini isloh qilishni chuqurlashtirishning ustivor vazifalari mamlakat hayoti va iqtisodiyotida agrar sohaning tutgan o'rni, respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, shu bilan birga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida islohotni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish va rivojlantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Iqtisodiyotning ushbu tarmog'ini rivojlantirish boshqa sohalarga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Mamlakat iqtisodiyotida agrar soha sezilarli o'rin tutar ekan, unda iqtisodiy islohotlarni olib borish va uni rivojlantirishdan har tomonlama manfaaddordir. Hozirgi kunda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini tahlil qilar ekanmiz, 2017 yilning o'zida qishloq xo'jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi qo'mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirilganligini qayd etish joiz.

“O‘zbekistonni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo‘jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganimiz sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda”¹

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 9 декабр 2017

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari , xususan qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va kreditlashning yangi tizimi, jumladan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot va keltiriladigan texnika, yoqilg'i va mineral o'g'itlar uchun bo'ladigan o'zaro hisob-kitoblarning asoslari ishlab chiqilib bank tizimi amaliyotiga tatbiq etildi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy mustaqilligi kengaydi. qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olishda shartnomaviy baholar tizimi keng qo'llanilmoqda. Shuning natijasi o'laroq, agrosanoat tarmoqlari faoliyatida juda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot, e'tibor bering, tayyor mahsulot eksport qilindi. 724 ming tonna ho'l meva chetga sotildi va bu yurtimizga 856 million dollar valyuta keltirdi. Holbuki, ilgari ming-ming tonna turli shirin-shakar mevalarimiz dalada qolib, chirib ketar, isrof bo'lardi, eng yomoni, uvol bo'lar edi”².

Shu bilan birga hali agrosanoat majmuasi tarmoqlari, xususan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va rivojlanishining ichki imkoniyatlari to'liq ochilmagan. “Afsuski, keyingi 20 yil mobaynida biz agrar tarmoqni ilm-fan yutuqlari asosida rivojlantirishga yetarlicha e'tibor bermadik, e'tiborsizligimiz tufayli mavjud ilmiy-tekshirish institutlari moliyaviy muammolar girdobiga, nochor ahvolga tushib qoldi, ta'bir joiz bo'lsa, “chalajon” bo'lib qoldi”³.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini tubdan isloh qilish, qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni joriy qilish, aynan qishloq xo'jaligida faoliyat

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 9 декабр 2017

³Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи

yuritayotgan moliya-kredit institutlari bilan bog'liq bo'lgan, lekin hali to'liq ishlamayotgan imkoniyatlarini takomillashtirishga bog'liqdir. Bu esa bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari boyicha nazariy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- mamlakatimizda agrar islohotlarni olib borishning huquqiy-moliyaviy asoslarini, agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishning ahamiyati va nazariy asoslarini nazariy yoritish;

- respublikamizda Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda banklarning amaldagi ahamiyatini tahlil qilish;

- qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlardan foydalanishning amaldagi holatini tahlil qilish;

- agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlardan foydalanish samaradorligini oshirish boyicha tavsiyalar berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ekti bo'lib "Ipoteka-bank" ATIB Qashqadaryo viloyat filiali hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sifatida tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy, moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishlari uchun "Agrosanoat majmui iqtisodiyoti", «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanidan

ma'ruza matnlarini tayyorlash, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borishda amaliy ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar royxatidan iborat.

I bob. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishning ahamiyati va nazariy asoslari.

1.1. Agrosanoat majmuasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'рни va ahamiyati.

Agrosanoat integratsiyasi – sanoat va qishloq xo'jaligining bir-biriga singib ketishi, bir butun tizimga aylanishidir. Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyasini rivojlanishining natijasidir. Tarmoqlarning bir-biridan ajralib ketishi ularning ishlab chiqargan mahsulotlarini ayriboshlashni kuchayishini talab qildi. Bir tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotga talab asosan boshqa tarmoqda vujudga keladi. Natijada bir tarmoq ikkinchisiz mo'tadil rivojlana olmaydi. Bu ularni integratsiyalashuvi zaruratini keltirib chiqaradi. Sanoat va qishloq xo'jaligining rivoji ular o'rtasida aloqalarning murakkablashuviga olib keldi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanish uchun qayta ishlash sanoatiga tushadi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi sanoat uchun xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqqa aylana boradi. Qishloq xo'jaligining oxirgi iste'molchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi kamayib boradi. O'z navbatida iste'molchilarga tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar (qayta ishlash sanoati) yaqinlashib boradi. Bu esa o'z navbatida tarmoqlararo integratsiyani kuchaytiradi.

Keyingi yillarda ishlab chiqarish shu darajada yuksalib bormoqdaki, iqtisodiyotning turli tarmoqlari bir-biri bilan juda chambarchas bog'lanib qolmoqda. Ularning bog'lanishi, ayniqsa, texnologik jihatidan bir – birini to'ldiruvchi tarmoqlarda kuchli. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarda bu jarayon juda yorqin namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, uni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi, qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohalar iqtisodiyotini bir – biridan ajri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu tarmoqlar yagona bir tizimni tashkil etadi va ularning birgalikda mutanosib ishlashi provard natijaning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan sanoatning bir butun ko‘rinish olayotgani to‘g‘risida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, “O‘zmevasabzavotuzumsanoat- xolding” kompaniyasiga qarashli shirkat-zavodlar, sutni qayta ishlovchi ayrim korxonalar, shuningdek, issiqxonalar, parandachilik fabrikalari bunga misol bo‘la oladi. Bu sohalarda bir yuridik maqomga ega korxonada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqariladi va shu korxonaning o‘zida u daslabki qayta ishlash jarayonidan o‘tadi, ba‘zan, to‘la qayta ishlanadi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligi darajasidan yuqorilashib, ma’lum ma’noda sanoatlashib ketgan.

Agrosanoat integratsiyasining yanada chuqurlashib borishi obyektiv jarayondir. Bu, albatta, qishloq xo‘jaligining va umuman, agrosanoat majmuasining, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga olib keluvchi jarayondir.

Agrosanoat integratsiyasining va kooperatsiyasining mahsuli sifatida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab mamlakatimizda agrosanoat majmuasi yagona tizim sifatida shakllana boshladi.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkazib beruvchi, yagona maqsadlarga bo‘ysundirilgan, texnologik jihatdan ustun darajada bir biri bilan bog‘langan tarmoq va xizmatlar yig‘indisidir. Agrosanoat majmuasini agrar iqtisodchi olimlar turlicha tasniflagan. Ular juda turli taman bo‘lib, iqtisodiy fan mamlakat, hudud va mahsulot turlari bo‘yicha “agrosanoat majmuasi” tushunchalarini farqlaydi. Shunga ko‘ra agrosanoat majmuasi:

- Mamlakat agrosanoat majmuasi;
- Hudud agrosanoat majmuasi;
- Ixtisoslashgan (go‘sht, sut, don, sabzavot va poliz kabi mahsulot turlarini yetishtirish bilan shug‘illanuvchi) agrosanoat majmualaridan iborat.

Ixtisoslashgan agrosanoat majmualari ikkiga bo‘linadi. Birinchisi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmuasi. Ikkinchisi nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmuasi. Bu agrosanoat

majmualarining har ikkalasi ham alohida olingan tovarlar (mahsulotlar) bo'yicha agrosanoat majmualarini tashkil etadi.

Mamlakat agrosanoat majmuasiga qishloq xo'jaligi tarmog'i, agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, omixta yem zavodlari, mineral o'g'itlar tayyorlovchi zavodlar va x.z.), qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi (paxta zavodlari, donni qayta ishlovchi elevatorlar, go'sht, sut kombinatlari, jun zavodlari, pillani qayta ishlovchi zavodlar va boshqalar), qayta ishlovchi va tayyor, oxirgi mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar va xizmatlar kiradi. Bundan tashqari ushbu jarayonlarga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ham uning tarkibiga kiradi.

Hudud agrosanoat majmuasi esa ma'lum, bir hudud (iqtisodiy hududlar, viloyatlar, vohalar, ba'zan tumanlar) doirasida amal qiladi. Ularning tarkibiga ayrim korxona va tarmoqlar (respublika maqomiga ega bo'lgan, mamlakatning barcha hududlari uchun xizmat ko'rsatadigan) kirmasligi mumkin. Masalan, agarda traktor yoki kombayn ishlab chiqaruvchi zavod o'sha hududda joylashmagan bo'lsa, region agrosanoat majmuasi tarkibga kirmaydi.

Mamlakat agrosanoat majmuasi murakkab tarkibiy tuzilmaga ega bo'lib, uning tarkibi 4 ta sohadan tashkil topadi. Iqtisodchi olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi bo'yicha bir xil fikrga ega emaslar. Agrosanoat majmuasining tashkiliy-iqtisodiy masalalariga bag'ishlangan yuzlab ilmiy maqolalar, monografiyalar e'lon qilingan va dissertatsiyalar yozilgan. Ayrim olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi 6 ta, ayrimlari esa 5 ta, bir guruhi 4 ta va boshqa bировlari 3 ta sohadan iborat deyishgan. Ularning har biri agrosanoat majmuasini tarkibini ilmiy izlanishning maqsadidan kelib chiqqan holda izohlagan. Agrosanoat majmuasining tarkibini ilmiy asarlarda belgilangan tasnifini birortasini inkor qilmagan holda uning tarkibini 4 ta sohaga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu sohalar quyidagilardir.


Birinchi soha. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari (tizimi) uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina, traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar ishlab chiqaradigan mashinasozlik korxonalari, ma'danli o'g'it va ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati, chorvachilik uchun omixta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari uchun dori-darmon ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar kabilar kiradi.

Ikkinchi soha. Qishloq xo'jaligining o'zi. Bu soha agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini tashkil etadi va majmuaning boshqa sohasiga kiruvchi tarmoqlar asosan shu tarmoq mahsulotlari asosida faoliyat yuritadilar yoki xizmat ko'rsatadilar. Qishloq xo'jaligi o'z navbatida o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlariga bo'linadi. Bundan tashqari agrosanoat majmuasining ikkinchi sohasiga, pillachilik, asalarichilik, qisman o'rmonchilik (tabiiy oziq-ovqat va dorivor o'simliklar yetishtirish) hamda baliqchilik kiradi.

Uchinchi soha. Bu soha - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar yig'indisidan iborat. Oziq-ovqat sanoati, paxta zavodlari, go'sht, sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, yog'-moy zavodlari, junni, kanopni, pillani qayta ishlash zavodlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yoki ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni saqlaydigan hamda ularni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar shu sohaning tarkibini tashkil etadi.

To'rtinchi soha. Bu soha - agrosanoat majmuasi infratuzilmasidan iborat. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi juda murakkab tarkibga ega. Shu bilan birgalikda ularning ayrimlari o'z xizmat xususiyatiga ko'ra ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma tarkibiga kirishi mumkin. Shunga qaramasdan iqtisodiy tahlil qilishning, qarorlar qabul qilish uchun zurur sifatli ma'lumotlarni olish uchun uni tasniflash maqsadga muvofiq. Infratuzilmaning o'zi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy

infratuzilmadir. Mamlakat agrosanoat majmuasining umumiy ko‘rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:



1.1.1-chizma. O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining tarkibi

Ana shu 4 ta sohaga kiruvchi tarmoqlar birlashib, mamlakatning yagona agrosanoat majmuasini tashkil etadi. Agrosanoat majmuasining tarkibi juda murakkab bo‘lib, u turli omillar ta’sirida davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib boradi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida talab va taklif asosida ayrim tarmoqlar, sohalar yo‘q bo‘lib boshqalari shakllanadi va rivojlanadi. Agrosanoat majmuasining tarkibini o‘zgarishiga qishloq xo‘jaligi faol ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakat qishloq xo‘jaligi tarkibida yuz beradigan o‘zgarishlar agrosanoat majmuasi tarkibining o‘zgarishiga olib keladi. Mamlakat agrosanoat

majmuasi tarkibiga jahon bozorida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan konyukturaning o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan hududlarda turli sabablarga ko'ra tarkibiy o'zgarishlar yuz berib turadi. Chunki bozor qonuniyatlariga ko'ra har bir davlat ishlab chiqarish tarkibini shakllantirayotganda o'zining absolyut va nisbiy ustunligini aniqlab olishi lozim. Aks holda raqobatda yengiladi va bu ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga chiqaradi. Shu sababli qishloq xo'jaligida doimiy ravishda ixtisoslashish jarayoni chuqurlashib, takomillashib boradi. Bu esa o'z navbatida mamlakat yoki hudud agrosanoat majmuasi tarkibini o'zgarishiga, takomillashishiga olib keladi. Agrosanoat majmuasi tarkibining o'zgarishiga olib keladigan sabablardan yana biri tabiiy-iqlim sharoitlarida yuz beradigan o'zgarishlardir. Tabiiy-iqlim sharoitlarning o'zgarishi qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish tarkibida o'zgarishlar yuz berishini talab qiladi. Chunki mintaqadagi tabiiy-iqlim sharoiti ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni umuman yoki qisman cheklab qo'yadi. Tabiiy-iqlim sharoit qishloq xo'jaligining ayrim mahsulotlarini yetishtirish uchun noqulay bo'lsa bu muammoni issiqxonalar yordamida hal etish mumkin. Lekin issiqxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarning tannarxi ko'pchilik hollarda nisbatan yuqori bo'ladi va buning iqtisodiy natijalarga ta'siri odatda salbiy bo'ladi. Agrosanoat majmuasining tarkibiga fan, texnika va texnologiyaning ta'siri ham katta. Fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi odatda mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari ta'sirida agrosanoat majmuasining tarkibi takomillashib boradi. O'zbekiston Respublikasida asosiy e'tiborni agrosanoat majmuasining birinchi sohasini imkon darajasida keng shakllantirish va jadal rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiq. Chunki O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi texnikalariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan, saqlaydigan sohalar uchun zarur texnikalarga talab katta. Hozirgi kunda respublika agrosanoat majmuasi ushbu texnikalarning salmoqli bir qismini xorijdan keltirishga majbur bo'lmoqda. Ushbu texnikalarga

bo'lgan talabning importga qaramligi mamlakat agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublika agrosanoat majmuasida alohida e'tibor uning infratuzilmasiga qaratilishi majmuaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Agrosanoat majmuasining infratuzilmasi texnika ta'minoti va ta'mirlash xizmati, irigatsiya va melioratsiya xizmati, zooveterinariya xizmati, kimyoviy xizmatlar, bioliogik loybaratoriya xizmatlari, aloqa va transport xizmatlari, majmua tarmoq va sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash tizimi, qishloq aholisi uchun maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, sport-sog'lomlashtirish tizimi, maishiy va madaniy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar, qishloq aholisini ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash tizimi, dam olish korxonalarini o'z ichiga oladi. Bu tizimga kiruvchi biror bir korxona yoki sohaning yetarlicha samarali ishlamasligi agrosanoat majmuasining oxirgi natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat iqtisodiyotida agrosanoat majmuasining ahamiyati va o'rnini juda katta. Uning o'rnini eng avvalo mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning yarmiga yaqini agrosanoat majmuasida ishlab chiqariladi. Majmuaning amaliy ahamiyati eng avvalo unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning qimmati bilan belgilanadi. Gap shundaki, agrosanoat majmuasining oxirgi mahsuloti insonlar kundalik iste'moliga qaratilgan oziq-ovqat va insonlarning shaxsiy kiyim-kechaklari, uy-ro'zg'or buyumlari hisoblanadi. Mamlakat agrosanoat majmuasida oziq-ovqatning 99 foizidan ko'prog'i yetishtiriladi. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi eksportbop mahsulotlar, paxta xom ashyosi, ipak tolasi, qorako'lchilik teri, meva va sabzavotlar yetishtiradi. Majmuada yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismi eksport qilinadi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qattiq valyuta tushumini ta'minlashda faol qatnashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga tushayotgan qattiq valyuta iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilishga, yurt xavfsizligini ta'minlashga, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish maqsadlariga sarflanadi. Hozirda qattiq valyutaning yarmiga yaqini shu majmua mahsulotlari (paxta tolasi, ipak, qorako'lchilik teri, meva, sabzavot, poliz, mineral o'g'itlar, kimyoviy mahsulotlar) ni sotishdan tushadi. 2005 yil natijalariga ko'ra mamlakatning tashqi savdosidan tushgan qattiq valyutaning 19 foizidan ko'prog'i, 2011 yilda ...foizi paxta tolasini sotishdan olindi.

Agrosanoat majmuasi mamlakatda mavjud ijtimoiy muammolarni yumshatishda asosiy rolni o'ynaydi. Majmua aholi uchun ish joylari bilan ta'minlaydi. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadiga to'xtalib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov – "Sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kichik va xususiy biznes vakillariga keng yo'l ochib berish, ularning oldidagi to'siq-g'ovlarni olib

tashlash, ijtimoiy muammolar, ayniqsa, ishsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz zarur"* degan edi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tez sur'atlar bilan o'sayotgan davlatlar qatoriga kirib, 2000 yilda ..., 2005 yilning 1 yanvar holatiga 25,8, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 28,9 million, hozirgi kunda 33 millionga yaqin kishini tashkil etadi. Mamlakat aholisining o'rtacha yoshi nisbatan yosh hisoblanadi. Aholining 60 foizidan ko'prog'i o'smir va yoshlarni tashkil etadi. Bu holat mamlakat iqtisodiyoti oldida yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki nisbatan yosh aholiga ega bo'lish aholining tabiiy o'sishiga nisbatan mehnat resurslarining tez o'sishiga olib keladi. Masalan, respublika aholisining tabiiy o'sishi 2000-2011 yillarda yiliga o'rtacha 1,26 foizni tashkil etgan holda mehnat resurslari shu yillari ichida 2,2 foizga oshgan. Natijada aholining mehnat yoshiga to'lganlarini ish bilan ta'minlashni yaxshilash zarurati yanada keskinlashadi. O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining iqtisodiyotda band bo'lganlarining 75 foiziga yaqini agrasanoat majmuasida ishlaydi.


Mamlakat iqtisodiyotidagi asosiy tarmoqlar shu majmuaga kirganligi sababli asosiy fondlarning (aktivlarning) katta qismi agrosanoat majmuasida faloiyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining juda katta resurslari agrosanoat majmuasi tarmoqlarida joylashganligi uning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu resurslarni takror ishlab chiqarish, mamlakat agrosanoat majmumasining rivojlanishi, aholining turmush darajasini oshirish to'g'ridan - to'g'ri shu majmuaning faoliyati bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining faoliyati samarali bo'lsa, halqning turmush darajasi yuqori bo'ladi yoki aksincha. Shu sababli agrosanoat majmuasini rivojlantirish respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

*Каримов Ислон. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз кудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букулмас иродасига боғлиқ. -Т.: "Ўзбекистон", 2004.-32 б.

Respublika agrosanoat majmuasi mustaqillik yillarida chuqur tarkibiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni boshdan kechirdi. Olib borilgan islohotlar natijasida bozor munosabatlari rivojlana boshladi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bozorning tarkibini belgilaydi. Agrosanoat majmuasi bozori tarkibi quyidagicha ifodalanadi.




1.1.2-chizma. Agrosanoat majmuasi bozori tarkibi

Bozorning tarkibining shakllanishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Jamladan, mulk shakli va xo‘jalik yuritish usullari, tovar ishlab chiqaruvchilar va ularni iste’mol qiluvchilar soni, baholarni nazorat qilish darajasi, tarmoqqa kirish va chiqishda qo‘yiladigan to‘siqlar, munosabatlarning rivojlanganlik darajasi, davlat siyosati va boshqalar bozorning tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bozorning amal qilish mexanizmlari, unga davlatning aralashuvi darajasiga qarab uch turdagi bozor tipi farqlangan. Bularga: rivojlanmagan bozor; erkin bozor va tartibga solinib turiladigan bozorlar kiradi. Rivojlanmagan bozor – bu bozorda oldi-sotdi jarayonlari kuchli rivojlanmagan, odatda oddiy tovar ayriboshlash jarayoni yuz beradi. Bu bozorda tovarlarning natural ayriboshlanishi (barter) ko‘proq amalga oshiriladi. Bu bozor to‘yinmagan hisoblanadi. Erkin bozor – bu raqobatli bozor hisoblanadi. Bu bozorda juda ko‘plab kichik va katta tovar ishlab chiqaruvchilar ishtirok etadi va ularning birortasi ushbu tovar narxini o‘zgartirishga sezilarli ta’sir eta olmaydi. Tovarlar erkin sotiladi. Erkin bozor o‘z mazmuniga ko‘ra amaliyotda deyarli uchramaydi. Erkin bozor tushunchasi nazariy jihatdan mavjud bo‘lib, iqtisodiyotning juda yuqori darajada rivojlangan davrlarda amal qilishi mumkin. Tartibga solib turiladigan bozor – bu bozorning faoliyatiga huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar bilan davlat aralashib (tartibga solib) turadi. Hozirda dunyo mamlakatlarida asosan tartibga solib turadigan bozorlar mavjud bo‘lib, davlatning bozorga aralashuv darajasi turli mamlakatlarda turlichadir.

O‘zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida “davlat asosiy tashabbuskor” tamoyiliga amal qilmoqda. Respublikada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori tez rivojlanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xom ashyosi va oziq – ovqat bozorini tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin. (3-chizma)



1.1.3-chizma. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari xom ashyosi va oziq – ovqat bozorini tarkibi

1.2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlardan foydalanishning zarurligi

Moliya – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash hamda davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiruvchi tizim. Markazlashtirilgan moliya deganda davlat byudjeti tizimi va hukumatning byudjetdan tashqari jamg'armalarida jamlanadigan pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tushinilsa, markazlashtirilmagan moliya korxonalar pul jamg'armalarining doiraviy aylanishi bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi va shu tufayli uning iqtisodiy tizimdagi roli va ahamiyati pul munosabatlarining shakllanish darajasiga bog'liq bo'ladi. O'zining moddiy mazmuniga ko'ra, moliya mamlakatning moliyaviy resurslarni tashkil etuvchi maqsadli pul mablag'lari jamg'armasini ifoda etadi.

Moliya:

- tovar moddiy qiymatliklarni xarid etish, mahsulot, ish va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonidagi korxonalar o'rtasida;
- markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish yuzasidan korxonalar bilan yuqori tashkilotlar o'rtasida;
- byudjet tizimiga soliqlar to'lash va xarajatlarni moliyalashtirish jarayonida korxonalar bilan davlat o'rtasida;
- to'lovlarni amalga oshirish va resurslar xarid etishda korxonalar, uy xo'jaligi va byudjetdan tashqari jamg'armalar o'rtasida;
- byudjet tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasida;
- sug'urta xolatlari vujudga kelganda zararlarni qoplash va sug'urta to'lovlarini amalga oshirishda korxonalar, uy xo'jaligi va sug'urta organlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini aks ettiradi;

Pul mablag‘lari hosil bo‘lishining asosiy moddiy manbai bo‘lib mamlakatning milliy daromadi – yangitdan yaratilgan qiymat yoki yalpi ichki mahsulotdan ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollarining chegirib tashlangan qismi xizmat qildi va aynan u milliy daromadning yaratilishi va undan foydalanish orasida bog‘lovchi bo‘g‘in xizmatini o‘taydi.

Moliya va kredit o‘zaro bog‘langan kategoriyalar bo‘lib, ular yordamida korxonalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida pul jamg‘armalari doiraviy aylanishi ta‘minlanadi.

Kredit bank tizimi va ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari orqali ssuda jamg‘armasining harakatini ifodalaydi. Moliya-kredit tizimining taqsimlovchi, nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi va barqarorlashtiruvchi funksiyalari mavjud.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari moliyasining mohiyati birinchi navbatda qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Qishloq xo‘jaligida yer, chorva mollari va boshqa tabiiy boyliklardan ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilgan bo‘lib, bu uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqlanishiga sabab bo‘ladi. Xususan, qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yer boshqa asosiy vositalar singari eskirmaydi (amortizatsiya qilinmaydi) va shu tufayli mahsulot tannarxini shakllantirishda ishtirok etmaydi. Shu bilan bir vaqtda yer uchastkalarining tabiiy unumdorlik darajasi va joylashgan o‘rni qishloq xo‘jaligi korxonalari differensial daromad (renta) hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi asosiy ishlab chiqarish fondlarining ahamiyatli qismini mahsulotlar va ishchi hayvonlar tashkil etadi. Ammo, ularni takror ishlab chiqarish jarayoni bevosita qishloq xo‘jaligining o‘zida amalga oshiriladi. Yer singari mahsuldor chorva mollariga nisbatan ham amortizatsiya hisoblanmaydi va u mahsulot tannarxi shakllanishida ishtirok etmaydi.

Qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan ko‘pgina xomashyo va materiallar bevosita korxonaning o‘zida yaratiladi. Yaratilgan mahsulotning ma‘lum bir qismi (podani to‘ldirish uchun yosh mollar, urug‘lik, chorva mollari uchun ozuqa, mahalliy o‘g‘it

sifatida go'ng va boshqa.) realizatsiya qilinmay, korxonaning o'zida takror ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun olib qolinadi.

Chorva mollarini boqish va o'simliklarni parvarishlash ishlab chiqarish jarayoniga avanslangan aylanma mablag'larning uzoq vaqt davomida aylanishini talab etadi. O'simlikchilikda u bir yilgacha, chorvachilikda esa 9 oygacha davom etadi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi yil oxirida (asosan, chorakda) realizatsiya qilinadi va pul tushumining bir maromda aylanishiga imkon bermaydi. Bu esa xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalarini faqatgina yil yakuniga ko'ra aniqlashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy – iqlimiy shart – sharoitlarga bog'liqligi hosilsizlik, suv toshqini, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar ta'siriga qarshi korxonalarning moddiy va pul zahira fondlarini yaratishni taqazo qiladi.

Tarixdan ma'lumki, har qanday jamiyatda iqtisodiyotni isloh qilish iqtisodiy dastaklar orqali amalga oshiriladi. Mazkur dastaklar ichida moliya-kredit tizimini islox qilish amaliyoti muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini bozor munosabatlari talablariga mos holda takomillashtirib borish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali moliyalashtirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini yanada takomillashtirishning ob'ektiv zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- amaldagi fermer va dehqon xo'jaliklarini kredit olishi uchun o'zining aylanma mablag'lari va garovga qoyadigan mulkining etishmasligi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi amaldagi fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatida tavakkalchilik darajasining yuqoriligi va aksincha garov majburiyatlarining kuchsiz ekanligi sababli tijorat banklari tomonidan ularni kreditlash salmog'ining pastligi;

- fermer xo'jaliklarini er uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi va bo'lg'usi hosilni garovga qoygan holda kredit olish mexanizmini amalda to'liq ishlamasligi;

- xalqaro kredit liniyalarini jalb qilish boyicha qoyilgan talablarga asosan fermer va dehqon xo'jaliklarida loyiha hajmining 25 foiziga teng xususiy kapitalning etishmasligi;


- fermer va dehqon xo'jaliklarida loyiha hajmining 120 foiziga teng miqdordagi garov mulkining yo'qligi;

- xorijiy investorlar kredit liniyalari boyicha eng kam kredit miqdori 50 ming AQSh dollarini tashkil qilishi sababli, fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan shu miqdorgacha bo'lgan asbob-uskunalarni kredit orqali harid qilish imkoniyatiga ega emasligi va boshqalar.

Shu bilan birga respublikamizda shakllangan tadbirkorlik sub'ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashning amaldagi tizimi qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi fermer va dehqon xo'jaliklarini boshqa tarmoqlardagi tadbirkorlik su'ektlari bilan teng sharoitga qoymoqda. Ya'ni, sanoat yo'nalishidagi kichik korxonalarda tijorat banklaridan olingan kreditlarning qaytimi qisqa muddatlarni tashkil etib, ularda foiz stavkalarini (qarzlarni) to'lash imkoniyati mavjud. Ammo, fermer va dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish jarayoni mavsumiy xarakterga ega ekanligi bois ishlab chiqarishga sarflangan moliyaviy mablag'lar qaytimi (daromad olishi) yil yakuni bilan bog'liq. Chorvachilik bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar esa 2-3 yildan keyingina daromad olib, sarflangan xarajatlarni, shu jumladan bank kreditlarini yoki kredit foizlarini qaytarish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini nazariy asoslarini takomillashtirishda fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatida kreditdan foydalanishning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari asosidagi zaruriyatiga alohida yondoshish talab etiladi.

Agrar sektorni isloh qilish yoki tarmoqni rivojlantirish strategiyasini belgilashda dehqon o'zining ijtimoiy va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan eng asosiy o'rinda turishi lozim.



1.2.1-rasm⁴. Fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini kreditlashning ob'ektiv zarurligini ifodalovchi omillar

Prezidentimizning 2003-2017 yillardagi, jumladan 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 19 apreldagi PQ-1958-sonli "2016-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2016 yil 17 apreldagi PQ-1957-sonli "2016 - 2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida dehqonning barcha muammolari bosh mezon qilib olingan. qishloq xo'jaligi tovar

⁴Xojiboev M.Sh. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer va dehqon xo'jaliklarini kreditlash tizimini takomillashtirish. 08.00.04 – «Agrosanoat majmui iqtisodiyoti» iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati T.: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi, 2010.

mahsuloti ishlab ishlab chiqaruvchilaraning manfaatlarini to'la ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratish, xizmat ko'rsatuvchi va mahsulotni sotib oluvchi barcha tashkilotlar faoliyatini ushbu maqsadga boysundirish asosiy masala sifatida e'tirof etiladi.

Fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini kreditlash tizimini takomillashtirilishi mohiyati va ahamiyatiga ko'ra bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarni ijobiy hal etish imkonini beradi. (4-rasmga qarang)

Tarmoq tovar ishlab chiqaruvchilari faqat kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yuritish uchun mablag'ga ega bo'lmaganliklari maqbul uchungina emas, balki etarli darajada ijtimoiy sharoitlar yaratish orqali qo'llab-qavatlanmaganliklari uchun qisqa qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida ishlab chiqarishni qisqartirishga majbur bo'lganligi shundan dalolatdir. Xususan, qishloq xo'jaligida baho shakllanishi jarayonini samarali tartibga solish mexanizmining yo'qligi, davlat qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun qishloqdan katta miqdorda qarzдорligi regional bozorda mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligi pasayishiga, chetdan keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari ularni siqib chiqarishiga olib keldi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni sharoitini yaxshilash uchun hal etilishi zarur bo'lgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- 1) baho nomutanosibligi (dispariteti)ni bartaraf etish;
- 2) korxonalar uchun kredit berish doirasini kengaytirish;
- 3) mahsulot sotish uchun yaxshi sharoit yaratish;
- 4) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari daromadlarining o'zlari yetishtirgan mahsulotning oxirgi narxidan oladigan ulushini ko'paytirish;
- 5) qishloq xo'jaligi korxonalari va birlashmalarida marketing faoliyatini kuchaytirish, shuningdek, bozor konyunkturasini muntazam o'rganib berish;
- 6) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini daromad nuqtai nazaridan davlat va mintaqa byudjetlari imkoniyatlari doirasida qo'llab– quvvatlash;

Mohiyati va ahamiyati	Erishiladigan natija
Iqtisodiy jihatdan	Qishloq xo'jaligini barqaror sur'atlarda o'sishni ta'minlaydi
	Sanoatni homashyoga va aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga erishiladi
	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarda mablag' taqchilligiga barham beriladi va ular o'rtasida raqobat muhitini yuzaga keltirish imkoniyati yaratiladi
	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarin eksporti hajmiga muvofiq vadyuta tushumini ko'paytirishga erishiladi
	Qishloq xo'jaligini yangi samarali, resurs tejoyvchi texnika va yuqori texnologiyalar bilan ta'minlashga erishiladi
	Davlat byudjetining daromadlar qismiga tushumlar ko'payadi
	Fermer va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi ta'minlanadi
Ijtimoiy jihatdan	Qishloq joylarida yangi ish joylari tashkil etiladi va qishloq aholisini doimiy ish bilan bandlik darajasi ortadi
	Aholi daromadlarining ortishi tufayli, ularning ijtimoiy xizmatlar va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan to'lov qobiliyati ortadi
	Aholining turmush darajasi yanada yaxshilanadi
	Fermer va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy ahvoli yaxshilanishi qishloqda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi
	Fermer va dehqon xo'jaliklarining nodavlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi mustahkamlanadi
	Bozor munosabatlari sharoitida kreditlash tizimining huquqiy-tashkiliy asoslarini takomillashtirish imkoni yaratiladi
Ekologik jihatdan	Yerlarning meliorativlik holati yaxshilanadi
	Suv resurslarini saqlash va ifloslanishining oldini olishga erishiladi
	Ekologik jihatdan toza mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi
	Mineral va kimyoviy vositalardan foydalanish meyor kamayishi, biologik vositalardan foydalanish darajasining ortishi rag'batlantiriladi

1.2.2-rasm⁵. Fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini kreditlashni takomillashtirishning ijobiy jihatlari

7) tovar ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash boyicha byudjetdan tashqari fondlar tashkil etish yili bilan qishloq xo'jaligiga kredit-moliya xizmati ko'rsatishni yaxshilash.

Biroq shuni ta'kidlash zarurki, iqtisodiyotni bozor talablari asosida qayta qurishning hozirgi bosqichida banklarning roli keskin ortdi. Ular bir tomondan, iqtisodiyot bozor tomon harakatlanishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan, uning muhim sektorlari xo'jaligi samarali taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan dehqon xo'jaliklarini, kichik va xususiy biznesni moliyaviy jihatdan ta'minlash, shuningdek, ularga kichik va o'rta biznes rivojlanishiga ko'maklashish fondidan kreditlar berish uchun bir necha moliya-kredit muassasalari, jumladan, «Mikrokreditbank», «Agro bank» «Qishloq qurilish bank» kabi qishloq xo'jalik maqsulotlarining tarkibidan o'simlik turlari boyicha ixtisoslashgan uchta banklar ajralib chiqdi.

Bunday sharoitda aksariyat tijorat banklari faoliyati asosan vositachilik tadbirlariga qisqa muddatli kreditlar berish bilan cheklanib qolayapti. Bu esa mamlakatda kredit resurslaridan umumishlab chiqarish manfaatlari yo'lida to'liq samarali foydalanishga, pul aylanishi jarayonini mustahkamlashga yordam berayapti.

O'zbekiston milliy iqtisodiyoti va uning muhim bo'g'ini – qishloq xo'jalik sohasida bozor iqtisodiyotining ko'p ukladli shakllanish davriga kirdi. Bunda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar pirovard natijada qiymat qonuni, talab va taklif, raqobatni hisobga olish, xaridorlar manfaati ustuvorligi asosiga qurilmoqda.

Qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos holda qayta tashkil etishning

⁵Xojiboev M.Sh. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer va dehqon xo'jaliklarini kreditlash tizimini takomillashtirish. 08.00.04 – «Agrosanoat majmui iqtisodiyoti» iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati T.: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi, 2010.

muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida moliya-kredit islohotlarini amalga oshirish orqali bu jarayonlarni takomillashtirishning asosiy maqsadi - agrar sektorni zarur moliyaviy resurslar bilan shunchaki ta'minlash jarayonigina emas, balki, xo'jalik sub'ektlarining ma'suliyatga asoslangan holda ishlab chiqarishni tashkil etish va uni rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'lardan foydalanish, erkin bozordan moddiy-texnik vositalar xarid qilish, kreditlarni qaytarish va kapital to'plashga imkon beradigan rentabellik darajasiga erishish uchun tadbirkorona ish yuritishga qaratilgan.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun joriy etilgan dotatsiyalar o'z mazmunini yo'qotmoqda. Bunga birinchidan, inflyatsiya jarayoni mobaynida to'lovlarining 2-3 oylab to'xtatib turilishi, ikkinchidan, to'lov turlarining ko'pligi (sotilgan mahsulotlar uchun, energiya resurslari uchun to'lovlar va xokazo). hatto yil oxirida moddiy resurslarning davlat tomonidan past narxlarda sotishdek moddiy rag'batlantirish chorasi qisqa inflyatsiya oqibatida o'z mohiyatini yo'qotmoqda.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligi sub'ektlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash uchun bir necha tadbirlarni amalga oshirish choralari ko'rib chiqish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bevosita qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyorida bo'lgan madaniy-maishiy yo'nalishdagi ob'ektlar saqlovi boyicha xarajatlarni byudjetdan moliyalashtirish masalasini qisqa muddatda hal etish zarur. Negaki ijtimoiy infratuzilma saqlovi xarajatlari qishloq xo'jaligi korxonalariga og'ir yuk bo'lib tushmoqda.

Xo'jalikda boqimandalik holati yuzaga kelmasligi uchun davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashda (subsidiya) muayyan xo'jalik faoliyatining darajasi, yuzaga kelgan iqtisodiy holati ob'ektivligi hisobga olinishi kerak.

Ushbu muammolarni hal qilish agrar tadbirkorlarning iqtisodiy mustaqilligini va moliyaviy barqarorligini yuzaga keltiradi. Shu o'rinda agrar tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimini maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligida agrar tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish boyicha quyidagi tashkilotlar faoliyat yuritmoqda: Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi ish bilan ta'minlanishga ko'maklashuvchi jamg'armasi va yangi tashkil etilayotgan kredit uyushmalari, shuningdek, agrar tadbirkorlik faoliyatiga kredit resurslarini ajratuvchi bir qancha tijorat banklari shakllandi.

Respublikaning etakchi muassalari, idoralari va tashkilotlari agrar soha bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ustivor yo'nalishlaridan biri -bu kichik dehon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdir. Aytish lozimki, dehqon va fermer xo'jaliklariga qulayliklar yaratilmoqda va imtiyozlar berilmoqda. Xususan yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari ikki yilgacha barcha turdagi soliqlardan ozod etilganini, ularga boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar ajratilayotgani soha rivojida muhim omil bo'lmoqda.

Hozirgi vaqtda xususiy tadbirkorlik, kichik biznes sub'ektlarini ayniqsa dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash boyicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Maxkamasi qarorlariga asosan mazkur sohani rivojlantirish boyicha meyoriy-huquqiy baza takomillashtirilib kelinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 476-sonli qarorining ijrosi yuzasidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning asosiy mulkchilik shakli sifatida fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida turli chora tadbirlar olib borilmoqda.

Qishloqda tadbirkorlikni, qayta ishlash kichik korxonalarini yanada rivojlantirish maqsadida, tijorat banklari tomonidan dehqon-fermer va shirkat xo'jaliklariga texnika, texnologiya, uskunalar va mexanizmlar sotib olish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratilishi yo'lga qoyilgan.

Ammo bu xo'jaliklar moliyaviy ahvolidagi yomonlashuvi natijasida ularning banklardan katta miqdordagi muddati o'tgan qarzlari saqlanib qolmoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalari moliyasining mohiyati birinchi navbatda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligida yer, chorva mollari va boshqa tabiiy boyliklardan ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilgan bo'lib, bu uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqlanishiga sabab bo'ladi. Xususan, qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer boshqa asosiy vositalar singari eskirmaydi (amortizatsiya qilinmaydi) va shu tufayli mahsulot tannarxini shakllantirishda ishtirok etmaydi. Shu bilan bir vaqtda yer uchastkalarining tabiiy unumdorlik darajasi va joylashgan o'rni qishloq xo'jaligi korxonalari differentsial daromad (renta) hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aksariyat qismini mahsulotlar va ishchi hayvonlar tashkil etadi. Ammo, ularni takror ishlab chiqarish jarayoni bevosita qishloq xo'jaligining o'zida amalga oshiriladi. Yer singari mahsulodor chorva mollariga nisbatan qisqa amortizatsiya hisoblanmaydi va mahsulot tannarxi shakllanishida ishtirok etmaydi.

Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan ko'pgina xomashyo va materiallar bevosita korxonaning o'zida yaratiladi. Yaratilgan mahsulotning ma'lum bir qismi (podani to'ldirish uchun yosh mollar, urug'lik, chorva mollari uchun oziqa, mahalliy o'g'it sifatida go'ng va boshqa.) realizatsiya qilinmay, korxonaning o'zida takror ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun olib qolinadi.

Chorva mollarini boqish va o'simliklarni parvarishlash ishlab chiqarish jarayoniga avanslangan aylanma mablag'larning uzoq vaqt davomida aylanishini talab etadi. O'simlikchilikda u bir yilgacha, chorvachilikda esa 9 oygacha davom etadi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi yil oxirida (asosan chorakda) realizatsiya qilinadi va pul tushumining bir maromda aylanishiga imkon bermaydi. Bu esa xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalarini faqatgina yil yakuniga ko'ra aniqlashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy – iqlimiy shart – sharoitlarga bog'liqligi hosilsizlik, suv toshqini, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar ta'siriga qarshi korxonalarning moddiy va pul zahira fondlarini yaratishni taqazo qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonining uzoqligi sababli qishloq xo'jaligida yil boshida qilingan sarf-xarajatlar o'z natijasini yil oxirida beradi.

Masalan, kuzgi bug'doy ekin uchun oktabr oylarida yerlar tayyorlanib urug'lik sepiladi va may-iyun (7-8 oy) oylarida yig'ib olinadi. Bug'doyni sotib, puli olgingunga qadar (10-12 oy) yana vaqt o'tadi.

Bu holat ishlatilayotgan mablag'larni 10-12 oy, ba'zi xollarda 15-18 oygacha ushlanib qolishiga sabab bo'ladi va buning natijasida xo'jaliklarning o'z mablag'lari etishmaydi.

Qishloq xo'jalik korxonalarga imtiyozli kreditlar ajratish va tijorat banklarining bu korxonalarga zarar etkazilganligi uchun javobgarligi qonunan belgilab qoyildi.

Qishloq xo'jaligini isloh qilishini sifatdan yangi darajasi respublikamizda 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi va «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi konunlari bilan ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, mineral o'g'itlar, yoqilg'i moylash materiallari sotib olishga karatilgan aniq maksadli kreditlar, qishloq xo'jalik korxonalariga beriladigan bo'naklarni «O'zagrosug'urta» sug'urtalaydi. «O'zagrosug'urta» qishloq xo'jalik korxonalari oladigan maqsadli kreditlar va bo'naklarni 50 foiz mikdorda sug'urtalaydi. Qolgan 50 foiz uchun tayyorlovchilar, masalan paxta zavodi yoki don mahsulotlari kombinati qishloq xo'jalik korxonalarining mol - mulkini garovga oladi. Dehqon xo'jaliklari ikki turdagi kreditdan:

1. Ishlab chikarishi ob'ektlarini qurish, asosiy ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun uzoq muddatli kredit;
2. Joriy ishlab chikarish faoliyatini ta'minlash uchun qisqa muddatli kreditdan foydalanishi e'tirof etildi. Bu kredit munosabatlari tijorat banklari bilan

ixtiyoriy va krediti shartnomasi asoslarida olib berilishiga belgilab berildi. Shuni ta'kidlash lozimki, konunda fermer xo'jaliklari uchun bank muassasalarida maxsus kredit fondlari orqali imtiyozli kreditlar ajratilishi kuzda tutilgan.

Yuqoridagi keltirilgan omillardan yaqqol ko'rinib turibdiki, respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, uni eksport quvvatini oshirish uchun barcha iqtisodiy - negiz yaratib berilgan.

II bob. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishning amaldagi holati tahlili.

2.1.Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlash mexanizmini isloh qilish bosqichlari tahlili.

Fermer xo'jaliklarini imtiyozli kreditlash tizimining eng asosiy bo'g'inlaridan biri davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilayotgan paxta va galla yetishtirish xarajatlarini davlat orqali moliyalashtirish tizimi hisoblanadi. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish Moliya vazirligi huzuridagi "Davlat ehtiyojlari uchun xarid kilinadigan qishlok xo'jalik mahsulotlariniig hisob-kitob Jamg'armasi" tomonidai amalga oshiriladi. Jamg'arma O'zbekistoi Respublikasi Prezidentining 1998 yil 31 dekabrda 2165-sonli Farmoniga muvofiq tashkil qilingan.

O'zbskiston Rsspublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 28 yanvarda 612-raqam bilan royxatga olingan "Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan kishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob Jamg'armasi to'g'risida nizom"ga muvofiq jamg'arma mablag'lari davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun hisob-kitoblarii o'z vaqtda moliyalashtirishii ta'minlashga mo'ljallangan.

Jamg'arma mablag'larini shakllantirishning asosiy manbalari quyidagilar bo'ladi:

- paxta tolasini eksport qilish forward shartnomalaridan kelib tushadigan bo'nak to'lovlari;
- paxta tolasi eksporti boyicha yakuniy hisob-kitoblardan kelib tushadigai tushumlar;
- kredit resurslari;
- davlat ehtiyojlari uchun xarid kilinadigai mahsulotni qayta baholashdan shakllanadigan mablag'lar;

- byudjetdan tashqari boshqa mablag'lar.

Jamg'armaning paxtaxom-ashyosini va g'allani ishlab chiqarish, sotib olish va qayta ishlashni moliyalashtirish boyicha moliya agenti bo'lib OATB "Ipotekabank" hisoblanadi.

Jamg'armani moliya agentiga limit va meyor doirasida ajratilayotgan mablag'larni samarali va ko'zlangan maqsadlarga sarflanishini, maxsus ochilgan maqsadli hisoblar orqali davlat ehtiyojlari uchun etkazib berilayotgai mahsulotlar uchun o'z vaktida hisob-kitob qilinishi hamda Jamg'armaning maqsadli mablag'larini va tegishli haq to'lovlarini o'z muddatida qaytarish ustidan pazorat qilish yuklatiladi.

Jamg'armaning sotib olish, saqlash, qayta ishlash va soatish boyicha tijorat agentlari bo'lib:

- paxta xom-ashyosi boyicha – Paxtasanoat hududiy aktsiyadorlik birlashmalari;
- g'alla boyicha - «O'zdonmahsulot» aktsiyadorlik kompaniyasi hisoblanadi.

Tijorat agentlari davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan umumiy hajmiga Jamg'arma bilan tuzilgan Bosh bitimga asosan Ipotekabank ishtirokida o'zini tayyorlov tashkilotlari orqali qishloq xo'jaligi korxonalari bilan mahsulotni sotib olishga, sotib olinayotgai mahsulot uchun to'liq hisob qilishga o'z vaqtida va asosli shartnoma kontraktatsiyalar tuzilishini, mahsulotii sotib olishda, saqlashda va qayta ishlashda belgilangan standartlarga rioya qilish ustidan iazoratni ta'mminlaydilar.

Jamg'arma mablag'lari Jamg'armani moliya agentlariga - respublika tijorat banklariga Jamg'arma bilan moliya va tijorat agentlari o'rtasida tuzilgan Bosh bitimga asosan, maqsadli o'tib ketadigan maxsus ochilgan hisoblar orqali ajratiladi.

Respublikamizda tijorat banklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigai g'alla va paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish

maqsadlari uchun kredit ajratish uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda - mustaqilligimizning dastlabki yillarida qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy axvoli beqarorligi sababli, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish xarajatlarini tayyorlov korxonalari orqali bo'naklash orqali moliyalashtirish mexanizmi joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 31 dekabrda Farmoniga muvofiq joriy etilgan davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan kishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalari orqali bo'naklash mexanizmi:

- qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoq korxonalarini ishlab chikarish salohiyatini saklab qolishga xizmat qildi;
- xo'jaliklarning kredit olish qobiliyati o'ta past bo'lgai sharoitda, paxta xom ashyosi va don yetishtirishni tizimli asosda moliyalashtirib borishga imkoi yaratdi.

Shuningdek, fermer xo'jaliklari soni keskin oshib borishi sharoitida, ularni bo'naklash mexanizmiga muvofiq moliyalashtirish jarayonida bir qator muammolar vujudga keldi.

Bosqichlar	davr	Moliyalashtirish mexanizmi
1-bosqich	1999-2002 yillar	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini tayyorlash korxonasi orqali bo'naklar (transh ajratish) mexanizmi
2-bosqich	2003-2004 yillar	2003 yildan Buxoro, Namangan, Farg'ona va Xorazm, 2004 yildan boshlab, Andijon, Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlarida fermer xo'jaliklarni bo'naklashning (transh ajratishning) amaldagi mexanizmi o'rniga, xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining imtiyozli kreditlash mexanizmini sinov tariqasida joriy etish
3-bosqich	2005-2007 yillar	Respublika miqyosida 2005 yil hosilidan paxta va 2006 yil hosilidan boshlab g'alla yetishtirish xarajatlarini to'liq hajmda imtiyozli kredit ajratish yo'li bilan moliyalashtirish

2.1.1-rasm⁶. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan kishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalash tizimini bosqichlari

Ikkinchi bosqichda – yuzaga kelgan vaziyatni inoabga olgan holda, tashkil etilgai fermer xo'jaliklarining mulkdor sifatida faoliyat ko'rsatishlarida erkinlik yaratish va ishab chiqarishning iqtisodiy natijalarida ularning moddiy manfaatdorliklarini oshirish maqsadida amaldagi moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi. Xususan, Vazirlar Maqkamasiiing 2002 yil 7 noyabrdagi 383-sonli qaroriga muvofiq, 2003 yil hosilidan boshlab Buxoro, Namangan, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida fermer xo'jaliklarini bo'naklashning amaldagi mexanizmi o'rniga, ularga xizmat ko'rsatuvchn tnjorat banklarining nmtiyozli kreditlarini ajratish mexanizmi sinov tariqasida joriy etildi.

O'zbskiston Resnublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli karoriga muvofiq Moliya vazirligiing 2004-2005 yillarda respublikadagi barcha fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigai paxta xom ashyosi va g'alla yetishtirish xarajatlarini ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari orqaln to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash mexanizmiga o'tish to'g'risidagi taklifi kabul qilindi. 2004 yil hosilidan boshlab Andijon, Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ham ushbu mexanizm joriy etildi.

Joriy etilgan imtiyozli kreditlash mexanizmi, avval amalda bo'lgan bo'naklash mexanizmiga nisbatai bir qator afzalliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. 2003-2004 yillarda qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining avvalgi yillarga nisbatan samarali tashkil etilishi natijasida g'alla va paxtadan sezilarli darajada yuqori hosil olindi. Pirovardida, past rentabelli zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar soni sezilarli darajada kamaydi. Bu holat, amaldagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalari orqali bo'naklash mexanizmi o'rniga, ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini ajratish mexanizmiga o'tishga imkon yaratdi.

Uchinchi bosqichda - tadbiiq etilgan mexanizm o'z samaradorligini hamda

⁶Manba: Salimov B., Yusupov M. Qishloq xo'jaliginidavlat tomonidan tartibga solish va qo'llab quvvatlash. Ilmiy monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2011. 137 bet

afzalligini isbotlagandan so'ng Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 17 dekabrda
“Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari
yetishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish chora-
tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan:

- paxta xom ashyosi yetishtirishni moliyalashtirish - 2005 yil xosilidan boshlab;
- g'alla hosilini yetishtirishni moliyalashtirish - 2006 yil hosilidan boshlab, tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini ajratish mexanizmiga o'tkazilishi belgilab berildi.

Ushbu holatni inobatga olgan holda hamda fermer xo'jaliklarini mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarini moliyalashtirishda kredit resurslariga bo'lgan talabini to'liq kondirish hamda ularga qulayliklar yaratish maqsadida, 2007 yildan boshlab davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla hosilini kreditlash miqdori 50 foizdan 60 foizgacha ko'paytirildi.

Davlat buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklarga O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2007 yilning 14 aprelida 1675-son bilan royxatga olingan “Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlari tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi Nizom”ga asosan imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Kreditlar davlat ehtiyojlariga sotiladigan mahsulot qiymatining 60 foizigacha miqdorlarda yillik 3 foizlik ustama xaq to'lash sharti bilan (2 foizlik qismi bank marjasi) g'alla uchun 12 oygacha, paxta xom-ashyosi uchun 18 oygacha bo'lgan muddatga beriladi.

Xususan, tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ajratayotgan imtiyozsiz (tijorat) kreditining yillik fonz stavkalari 25-30 foiz va undan ham yuqori bo'layotgan bir paytda, fermer xo'jaliklariga tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkalari tijorat kreditlari foiz stavkalaridagi 2-3 barobar past bo'lmokda. Bu esa o'z

iaibatida qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosatini natijasidir va fermerlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalar orqali fermer xo'jaliklarini kreditlashda quyidagi imtiyozlar joriy etilgan:

- davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan paxta xom ashyosi va g'alla qiymatining 60 foizi qiymatida beriladigan qisqa muddatli imtiyozli kredit yillik 3 foizli stavkada;

- tijorat banklarining "imtiyozli jamg'armasi"dan beriladigan kreditlarining yillik foiz stavkalari miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

- tijorat banklarining fermer xo'jaliklariga milliy yoki xorijiy valyutada qarz berayotgan kunda birjadan tashqari valyuta bozori kursi boyicha 10000 (o'n ming) AQSh dollariga teng qiymatdagi mikro kreditlarning yillik foiz stavkasi Markaziy Bank qayta moliyalashtirish stavkasidan oshiq bo'lmagan miqdorda;

- "Mikrokreditbank"ning mablag'lari hisobidan beriladigan eng kam ish haqini 200 barobarigacha boshlang'ich sarmoya uchun mikro kreditlar yillik 5 foizli stavkada, biznesni ke'ngaytirish aylanma mablag'larni to'ldirish uchun eng kam ish haqining 500 barobarigacha mikro kreditlar Markaziy Bank qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit resurslari hisobidan beriladigan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkalari:

- dastlabki sarmoyani shakllantirishda Markaziy Bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida;

- fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish uchun Markaziy Bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi miqdorida belgilangan.

Inqirozga karshi choralar doirasida "tijorat banklari tomonidan kichik biznes

va xususiyy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasida e'tiborli jixatlardai biri O'zbekistoi Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi 4051-sonli «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarnii qo'llab-quvvatlash borasidagn faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish xaqining 200 barobari mikdoridagi imtiyozli mikrokreditlar boyicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga;

- kichik biznes sub'sktlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish xaqining 500 barobari mikdoridagi mikrokreditlar boyicha - Markaziy bank tomoiidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 foizidan 50 foiziga;

- kichik biznes sub'ektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 2000 barobari mikdoridagi imtiyozli mikrolizing xizmatlari boyicha maksimal stavkasi yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi⁷.

Ipoteka-bank» ATIB «kichik biznss va hususiy tadbirkorlarning etakchi kreditoriga aylanib bormoqda.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini kreditlashtirish hajmi yildan-yilga oshib borayotgani ijobiy holdir.

2.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida kreditdan foydalanish darajasi tahlili.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining pirovard natijalari ko'p jihatdan mavjud tabiiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Kishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy qonunlar harakati doimiy ravishda tabiat qonunlari harakatiga to'qnash keladi. Qishloq xo'jaligida aylanma mablag'larning aylanish muddati boshqa tarmoqlarga nisbatan uzoq muddatli ekanligi bilan ajralib turadi.


⁷B.Xodisv. A.Bekmurodov, U.Gofurov, O'zbekistonRespublikasiPrezidentiI.Karimoviing «Mamlakatimizni modernizatsnyaqilishvakuchlnfuqarolnkjamiyatnibarpo etish - ustuvormaqsadnmnzdir» va «Asosiyvazifamiz—vatanimiz taraqqiyotii axialqimizfarovonligini yanadayuksaltirishdir» nomlim a'ruzalarinio'rgaiishbo'yichao'quvqo'llaima, T.: Iqtisodiyot, 2010, 115 6.

Respublika Markaziy banki tomonidan fermer xo'jaliklarini imtiyozli kreditlash tartibini joylarda tushuntirish yuzasidan o'tkazilgan seminarlarda fermerlarga kreditning qaytarmasligini tijorat banklari tomonidan sug'urtalash takliflari berilganligini inobatga olib Markaziy bank Moliya vazirligi bilan kelishgan holda amaldagi yo'riqnomalarga o'zgartirish kiritgan.

Yangi tartibga binoan, 2004 yildan boshlab, kreditlarning qaytarmaslik xatarini tijorat banklari o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan bo'ldilar. Natijada, fermer xo'jaliklarining ushbu kreditlardan foydalanganligi uchun to'lanadigan haqlari amalda 5 foizdan 3 foizgacha kamaydi. Fermer-xo'jaligini imtiyozli kreditlash tizimining ikki yillik tajribasi jarayonni jadallashtirish, kam-xarj bo'lish, to'lov intizomini muqobillashtirish va boshqa bir qator ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Kreditning qishloq xo'jaligi moliyalashtirilishidagi asosiy manba ekanligini hayotni o'zi yana bir bor tasdiqladi.

2007 yil 13 martda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son va 288-v-sonli qarori qabul qilinib 2007 yil 14 apreldani boshlab "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom" amalga kiritildi.

Ushbu nizom asosida tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g'alla va paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlari uchun kreditlar berilishi belgilandi.



2.2.1-rasm⁸. Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi

Tijorat banklari tomonidan ushbu kreditlar qishloq xo'jaligi korxonalariga muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik hamda maqsadli foydalanish shartlarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g'alla va paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlarida beriladi.

⁸Muallif tomonidan

"Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom" gamu vofiq shakllantirilgan

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishga ajratiladigan imtiyozli kreditlar davlat ehtiyojlari uchun g'alla va paxta yetishtiruvchi barcha qishloq xo'jaligi korxonalariga tatbiq etiladi.

Kreditlar davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom ashyosi va g'alla qiymatining 60 foizigacha (tayyorlov korxonasi tomonidan bo'nak tariqasida etkazib berilgan urug'lik qiymatini inobatga olgan holda) miqdorida beriladi.

Bunda, kreditlar agrotexnik tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning 1 apreliga qadar paxta xom ashyosi qiymatining 25 foizigacha, 1 iyulga qadar 50 foizgacha va 1 sentabrga qadar 60 foizgacha; g'alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning 1 yanvariga qadar g'alla qiymatining 30 foizgacha, 1 aprelga qadar 50 foizgacha va 1 iyunga qadar 60 foizgacha beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi uchun ajratiladigan kredit miqdori qishloq xo'jaligi korxonasining «O'zpaxtasanoat» uyushmasi va «O'zdonmahsulot» AK korxonalari bilan davlat ehtiyojlari uchun etkazib beriladigan mahsulot uchun tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kreditlar tegishli qishloq xo'jalik mahsuloti bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalari bilan yakuniy hisob-kitoblar yakunlanguncha, lekin g'alla yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha 12 oydan va paxta xom ashyosi yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha 18 oydan ko'p bo'lmagan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlash bank marjasini hisobga olgan holda, imtiyozli foiz stavkasi bilan amalga oshiriladi.

Bu kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi yillik 3 foiz miqdorida belgilanib, uning 2 foizi bank marjasini tashkil etadi.

Kredit qishloq xo'jaligi korxonasiga uning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochgan va unga xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan

beriladi. Ushbu kreditlarni ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochilgan bank tomonidan berilishiga ruxsat berilmaydi.

Kredit qishloq xo'jaligi korxonasiga uning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochgan va unga xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan beriladi. Nizomda ushbu kreditlarni ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochilgan bank tomonidan berilishiga ruxsat berilmasligi ko'rsatilgan.

Oldingi yillarda ajratilgan imtiyozli kreditlar to'liq so'ndirilgandan so'ng joriy yil hosili uchun imtiyozli kreditlar beriladi.

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi o'rtacha xarid narx asos qilib olinadi.

Mazkur kreditlar faqat quyidagi maqsadlar uchun berilishi mumkin:

- ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash uchun;
- mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;

- yoqilg'i-moylash mahsulotlarini xarid qilish uchun;

- MTPlar, muqobil MTPlar, fermer xo'jaliklari, «O'z kimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, «O'z don mahsulot» AK va «O'z paxtasanoat» uyushmasi tizimidagi korxonalar huzurida faoliyat yuritayotgan muqobil MTP mas'uliyati cheklangan jamiyatlari hamda qishloq xo'jalik texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik sub'ektlarining xizmatlari uchun to'lovlarga;

- Lizingga (moliyaviy ijaraga) berilgan texnika vositalarining lizing to'lovlariga;

- Suv iste'molchilari uyushmalari xizmatlari uchun to'lovlarga;

- yagona yer solig'i to'lovlariga.

- Elektr energiya to'lovlariga;

- Urug'lik uchun to'lovlarga;

- Qishloq xo'jaligi korxonalarining paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa zaruriy ehtiyojlari uchun ham to'lovlar amalga oshirilishi mumkin. Boshqa zaruriy ehtiyojlar hisobidan paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq

xarajatlariga, bank xizmati, xo'jalik va idora xarajatlari, ichki xo'jalik irrigatsiya va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash xarajatlari, sug'urta xarajatlari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'lanadigan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda fermer xo'jaliklari uyushmalarini saqlash xarajatlari uchun to'lovlar amalga oshirilishi mumkin.

Bunda, ushbu yuqorida keltirilgan ekinlarni yetishtirish xarajatlarining har bir turini moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlarning eng ko'p miqdori yuzasidan tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan har yilgi hosil uchun agrotexkartalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mazkur tavsiya etilayotgan xarajatlarning agrotexnika meyorlari qishloq xo'jaligi korxonalariga biznes-reja (ilovaga qaring) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasining biror-bir xarajat turi boyicha to'lovlarga ehtiyoji bo'lmagan hollarda paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ruxsat etilgan xarajat turlari boyicha, shuningdek qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olishga, ichki xo'jalik irrigatsiya va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalashga ishlatilishi (mineral o'g'it, kimyoviy yoki biologik vositalar, yoqilg'i moylash materiallari va urug'lik material xarajatlari bundan mustasno) mumkin.

Agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratilgan imtiyozli kredit resurslarining ruxsat etilgan xarajat turlari boyicha maqsadli sarflanishi yuzasidan monitoring qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari zimmasiga yuklatiladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foizlar kreditning amaldagi qoldig'iga har kuni hisoblab boriladi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidang'alla yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar boyicha yilning iyul oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha, paxta xom ashyosi yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar boyicha yilning noyabr oyidan boshlab va

kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha undiriladi. Bunda qishloq xo'jaligi korxonalari kreditni va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarishlari mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarining paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash tartibining muhim xususiyati, ekinlarning har bir turini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlarning muddatlari va miqdorlari joriy yilga tasdiqlanadigan agrotexkartalar asosida belgilanishi deb hisoblanadi. Bundan kelib chiqib hisoblash mumkinki, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi shirkatlarining agrotexnik tadbirlar asosida ekinlarni yetishtirishlari uzluksiz va va doimiy asosda mablag' bilan ta'minlangandir.

Mamlakatimiz agrosanoat majmuining salohiyatini oshirishda «Ipotekabank» aktsiyadorlik-tijorat bankining o'rni alohida e'tiborga ega.

Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan korxonalar, agrofimlar, dehqon va fermer xo'jaliklari «Ipoteka-bank» ATIB sarmoyalaridan samarali foydalanib kelmoqda. Bank kredit portfelida qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, zamonaviy texnika va ehtiyot qismlar sotib olishga yo'naltirilgan mablag'lari miqdori salmoqli o'rin tutadi.

Ipoteka-bank ATIB ham o'zining eng muhim vazifasi sifatida qishloq xo'jaligi sohasini qay darajada qamrab olganligi bilan moliya bozoridagi o'rnini belgilaydi.

Xususan, iqtisodiyotning qishloq xo'jalik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash boyicha bankning etakchiligi – keng tarmoqli filiallar tizimining mavjudligi, barqaror kapitallashuv darajasi va an'anaviy mijozlar bazasiga egaligi, xorijiy banklar hamda moliya institutlarining jalb etilgan kredit liniyalari bilan belgilanadi.

2016 yilda bank tomonidan agrar kompleksni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sanoatda ishlab chiqarishni ko'paytirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishga katta e'tibor

qaratildi. Bu yo'nalishlarga 2 trln. 464 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi. Pirovardida 37 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, qishloq joylarida ishlab chiqarishni kengaytirish va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 760 mlrd. so'm hajmida kreditlar ajratildi.

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularga zarur xizmatlarni ko'rsatish Ipotekabankning oldiga qoyilgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sabab ularni qo'llab-quvvatlash maqsadlariga qaratilgan meyoriy hujjatlar ijrosida bank bevosita ishtirok etishi lozim. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 oktabrdagi PF-4478-sonli Farmoniga asosan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish maqsadida 190 mlrd. so'm kreditlar ajratilgan.

Jumladan, fermer xo'jaliklarida chorvachilikni tashkil qilishga 35,6 mlrd. so'm, parrandachilikka 4,6 mlrd. so'm, baliqchilikka 3,7 mlrd. so'm, asalarichilikka 1,4 mlrd. so'm kredit mablag'lari yo'naltirilgan.

Shuningdek, bog'lar va tokzorlarni tashkil qilishga 2,7 mlrd. so'm, kartoshka va sabzavot mahsulotlari yetishtirishga 17,1 mlrd. so'm, issiqxonalarni tashkil etishga 11,8 mlrd. so'm kreditlar ajratilgan.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun 8,1 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilgan.


2016 yilda g'alla hosildorligini oshirish maqsadida qo'shimcha oziqlantirish uchun mineral o'g'itlar sotib olishga bank mablag'lari hisobidan 61,7 mlrd. so'm kredit ajratilgan.

Tizimga oid korxonalar, shu jumladan fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jalik texnikalari, agregatlar va ehtiyot qismlar bilan ta'minlashga 74,9 mlrd. so'm kredit mablag'lari yo'naltirilgan.

Natijada 337 ta haydov va chopiq traktorlari, 18 ta kombayn hamda 49 ta turli texnika va agregatlar bilan xo'jaliklarning texnik bazasi mustahkamlandi.

Jumladan, Xitoyda ishlab chiqarilgan 130 ta "YutO-1302" rusumli haydov traktorlari sotib olishga 15,4 mlrd. so'm sarflangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 apreldagi EDO-04-19-5-sonli topshirig'iga asosan "Agrotex Paxta MTP" MChjlarga 500 dona paxta terish mashinalari sotib olish uchun 39,4 mlrd. so'm kredit mablag'lari ajratilgan.

Hududlarda intensiv bog'lar va tokzorlarni barpo etishga 10,9 mlrd. so'm, issiqxonalarni rivojlantirishga 33,4 mlrd. so'm hamda aholining poliz va sabzavot mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun 21,5 mlrd. so'mlik kreditlar yo'naltirilgan.



2.2.2.-rasm. Ipoteka-bank ATIB tomonidan qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlar (mlrd. so'mda)


2017 yilda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla hosili yetishtirish bo'yicha agrotexnik tadbirlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun jami 1139 mlrd. so'm ajratildi. Shundan g'alla hosiliga 267 mlrd. so'm, paxta hosiliga 873 mlrd. so'm imtiyozli kreditlar yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda fermerlik harakatining yil sayin taraqqiy etib borayotgani ham bejiz emas. Yuqorida ko'rsatilganidek, bu sohaga yo'naltirilgan kreditlar va boshqa moliyaviy ko'maklar miqdorining o'ziyoq bunda bankning samarali xissasi borligidan dalolat berib turibdi.

Qishloq xo'jaligi sub'ektlarini kreditlash masalasi bilan qishloq xo'jaligida faoliyat kursatayotgan sub'ektlarning yaqin xamkori Aktsiyadorlik tijorat «Ipoteka bank»i bankining qishloq xo'jaligini moliyalashtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni ko'rib chiqamiz.

“Ipoteka- bank” ATIB mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish borasida olib borilayotgan dolzarb chora-tadbirlarni amalga oshirishda munosib hissasini qo'shib kelmokda.

Hukumatimiz tomonidan so'nggi yillar davomida Respublikamizning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirishga juda katta e'tibor bilan yondashilmoqda, buning natijasida mazkur sohada ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Qishloq xo'jalik va sanoat korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqaruvchilari tarkibida qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida zamonaviy texnologiyalar hamda uskunalarni tatbiq qilish, ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishga yo'naltirilgan loyihalarni ishga tushirish maqsadida moliya muassasalari tomonidan kredit mablag'lari ajratish orqali qo'llab- quvvatlab kelinmoqda.



2.2.3.-rasm⁹. 2016 yilda “Ipoteka bank” ATIB tomonidan qishloq xo’jaligiga ajratilgan kreditlarning tarmoq tuzulmasidagi ulushi, (foizda)

2016 yilda bank tomonidan ajratilgan kreditlar qishloq xo’jalik korxonalari, moddiy-texnika ta’minoti korxonalari, sanoat va qurilish korxonalari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga yo’naltirilgan. Bank tomonidan iqtisodiyot sektorlari uchun ajratilgan jami kreditlar tarkibida qishloq xo’jaligiga ajratilgan kreditlar 37 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakat iqtisodiyoti va turmush tarzida muhim ahamiyat kasb etgan ustuvor tarmoqlar, xususan yirik kompaniya va korxonalar bilan hamkorlikda ishlash, ular bilan moliyaviy muomalaga kirishish bank mavqeini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham Ipotekabank bu boradagi hamkorliklarni ham keng yo’lga qoyib olgan.

Xususan, o’tgan 2016 yil davomida Ipoteka-bank ATIB tomonidan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jami 567,1 mlrd. so’m miqdorida kreditlar ajratildi va faktoring xizmatlari ko’rsatildi. Jumladan, bankning korporativ mijozlari hisoblangan “O’zpaxtasanoat” uyushmasi tizimiga 320,7 mlrd. so’m, “O’zdonmahsulot” AK tizimiga 114,0 mlrd. so’m, “O’zkimyosanoat” kompaniyasi tizimiga 87,0 mlrd. so’m, shuningdek, sanoat korxonalariga 40,2 mlrd. so’m miqdorida kreditlar ajratildi.

Bundan tashqari 2016 yilda respublikada investitsion faollikni oshirish hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish dasturlariga asosan “O’zdonmahsulot” AK korxonalariga ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlash uchun 30,9 mlrd. so’mlik bank kreditlari berildi.


Hukumat qarori asosida tashkil etilgan va bugungi kunda hisob raqamlari ochilgan 32 ta “Davsuvmaxsuspudrat” Davlat unitar korxonalariga Ipoteka bank filiallari tomonidan to’laqonli xizmatlar ko’rsatib kelinmoqda.

⁹Bankaxborotnomasi. 2017yil

Qishloq joylarda suv tanqisligining oldini olish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boyicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan bayonnomalar ijrosini ta'minlash borasida 2016 yil davomida Davlat unitar korxonalariga aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 2,9 mlrd. so'm kreditlar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-sonli Qaroriga asosan Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan o'tkazilayotgan tender savdolarida faol qatnashishi uchun davlat unitar korxonalariga o'tgan yilda Ipoteka-bank ATIB tomonidan jami 120 ta umumiy miqdori 12,6 mlrd. so'mlik bank kafolatlari taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28-noyabrdagi PF-4058-sonli farmoni bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish yuzasidan Farg'ona viloyati «Quva tekstil» OAJga 2017 yilda jami 3,9 mlrd. so'm kredit berildi. Natijada 1992 tonna paxta tolasi o'zlashtirildi va 2836 ming AQSh dollari miqdorida mahsulot eksport qilingan.



2.2.4-rasm¹⁰. Ipoteka-bank ATIB tomonidan korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar (mlrd. so'mda)


Bugun O'zbekiston kelajagini, xalqimiz farovonligiyu to'kin hayot haqidagi orzu va intilishlarimizni kichik biznes va xususiy tadbirkorliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, mamlakatda mulkdorlar sinfi qanchalik keng quloch yoysa, yurt istiqboli va porloq kelajagi haqida hech ikkilanmay biror so'z aytish, aniq manzillarga ko'z tikish mumkin bo'ladi.

Shu bois bugun banklar tomonidan asosiy e'tibor kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularga har taraflama ko'mak berish, ularning moliyaviy masalalarini o'z vaqtida va ijobiy hal etishga muhim ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Ipotekabankning barcha boshqarma va filiallarida ham bu masalaga jiddiy munosabat bildirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Farmon va qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan keng ko'lamdagi tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, kreditlar ajratish parametrlari tasdiqlandi.



¹⁰Bankaxborotnomasi. 2017yil

2.2.5-rasm¹¹. Ipoteka-banr ATIB tomonidan kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar (mlrd. so'mda)

Ipotekabank ATIB tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida kichik biznes sub'ektlariga respublika boyicha jami 759,8 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi va belgilangan reja 101 foizga bajarilgan. Ushbu kreditlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 179 mlrd. so'm yoki 131 foizga o'sgan.

Shuningdek, mijozlarga 205 mlrd. so'm miqdorida mikrokreditlar ajratildi. Belgilangan parametrlar ijrosi 103 foizni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 135 foizga o'sgan.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan kichik biznes sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirishga 206 mlrd. so'm kreditlar yo'naltirilgan.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalariga esa 158 mlrd. so'mlik kreditlar ajratilgan.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga 42,6 mlrd. so'm kredit mablag'lari yo'naltirilgan.

Mazkur dastur doirasida kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari tashkil etish boyicha qaratilgan loyihalarni amalga oshirish hamda aholining moddiy va ma'naviy sharoitini yaxshilash borasidagi tadbirlarni kreditlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, o'tgan yilda tadbirkor ayollarning loyihalarini moliyalashtirishga jami 79,9 mlrd. so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni kengaytirish uchun 13,9 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilgan.

Umuman olganda, qishloq joylarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari ichki imkoniyatlarni to'la ishga solgan holda, tashqi muhit omillariga qisqa e'tibor berishlari kerak. qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va ularni qayta ishlab chiqarishda kichik biznes korxonalarini ko'paytirish va bu

¹¹Bank axborotnomasi.2018 yil

korxonalarda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hisobiga ko'proq foyda olishga erishish choralarini amalda jiddiy qo'llash zarur. Eng muhimi, qishloq joylariga boshqa tarmoqlarni jalb etish, sanoat investorlarini qiziqtirish, qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

2.3. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlardan foydalanish tahlili.

«Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan tijorat banklari tomonidan ushbu kreditlar qishloq xo'jaligi korxonalariga muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik hamda maqsadli foydalanish shartlarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g'alla va paxta xomashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlarida beriladi. Kreditlar tegishli qishloq xo'jalik mahsuloti boyicha qishloq xo'jaligi korxonalari bilan yakuniy hisob-kitoblar tugaguncha, lekin g'alla yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar boyicha 12 oydan va paxta xomashyosi yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar boyicha 18 oydan ko'p bo'lmagan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g'alla va paxta xomashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlariga banklarimiz tomonidan imtiyozli shartlar asosida kreditlar yillik 3 foiz stavkada ajratilmoqda. Mazkur kreditlar ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash, mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini hamda yoqilg'i-moylash mahsulotlarini xarid qilish, MTPlar, muqobil MTPlar va qishloq xo'jalik texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik sub'ektlarining xizmatlari boyicha to'lovlarga, lizingga (moliyaviy ijaraga) berilgan texnika vositalarining lizing to'lovlariga, SIUlar (suv iste'molchilari uyushmalari) xizmatlari, yagona er solig'i, elektr energiyasi, urug'lik uchun to'lovlarga ajratilib kelinmoqda.

Respublikamiz hukumati tomonidan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvatlash va rivojlantirish borasida olib borilayotgan tizimli tadbirlar natijasida yildan-yilga fermer xo'jaliklarining mamlakat agrar tarmog'idagi o'rnini mustahkamlanib, yaratilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida ularning salmog'i ortib bormoqda.

Biz quyidagi 5-jadvallarda Nishon tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari bilan tanishishimiz mumkin.

2.3.1-jadval

Nishon tumani asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Hajmi			O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %		
		2015 y.	2016 y.	2017 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Sanoat mahsulotlari	mlrd.	9,2	10,6	16,0	114,9	112,5	118,9
Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish	mlrd. so'm	8,6	9,9	13,2	114,9	106,2	116,7
Qishloq xo'jaligi	mlrd.	75,0	89,0	109,9	105,9	106,7	107,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mlrd. so'm	30,6	51,0	126,5	105,6	148,4	104,6
Qurilish-pudrat ishlari	mlrd.	28,4	35,4	42,7	107,6	110,5	112,4
Chakana tovar aylanmasi	mlrd.	119,3	151,4	192,2	122,2	114,1	114,9
Jami xizmatlar hajmi	mlrd.	38,7	87,8	100,6	116,5	134,8	119,4
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	mlrd. so'm	28,4	46,6	62,0	114,5	115,5	118,0
Tashqi savdo aylanmasi	ming	20237,4	20178,1	21700,6	43,2	99,7	107,5
Eksport	ming	17,0	14,0	-	-	83,2	-
Import	ming	20187,3	20178,1	21700,6	43,2	99,6	107,6

Manba: Nishon tumani hokimiyati ma'lumotlari asosida

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Nishon tumani hududiy mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, 2015 yilda 75,0

mlrd. so'm, 2017 yilda 59,0 mlrd. so'm, 2017 yilda 109,9 mlrd. so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tgan yillarga nisbatan 2015 yilda 105,9 foizga, 2016 yilda 106,7 foizga, 2017 yilda 107,9 foizga o'sganligini ko'ramiz.

2015 yilda jami qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklarining ulushi 20,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017 yilga kelib 20,7 foizni tashkil qilmoqda. (6-jadval). Dehqon xo'jaliklarining ulushi esa 2015 yilda 72,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 73,4 foizni tashkil etmoqda. Ya'ni qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishda fermer va dehqon xo'jaliklarining ulushininig usish suratlarini ko'zatishimiz mumkin.

2.3.2-jadval

Nishon tumanida 2015-2017 yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi

Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd. so'm	foizda	mlrd. so'm	foizda	mlrd. so'm	foizda
Qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish	74,9	100	89	100	109,9	100
sh.j. qishloq xo'jalik korxonalarida	5,1	6,8	3,4	3,8	6,5	5,9
fermer xo'jaliklarida	15,3	20,4	20,4	22,9	22,7	20,7
dehqon xo'jaliklarida	54,5	72,8	65,2	73,3	80,7	73,4

Manba: Nishon tumani hokimiyati ma'lumotlari asosida

2.3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Nishon tumani bo'yicha jami ekin maydonlari 2015 yilda 15191 gektarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017 yilda 31877 gektarni tashkil etmoqda, ya'ni 2015 yilga nisbatan 2 baravarga oshgan. Shundan fermer xo'jaliklarida 2015 yilda 11852 gektarni tashkil

qilgan bo'lsa, 2017 yilda 26502 gektarni tashkil etmoqda va fermer xo'jaliklarining er maydoni 2015 yilga nisbatan 2,2 baravarga ko'paygan.

2015 yilda 11,8 ming tonna g'alla yetishtirilgan bo'lsa, 2017 yilda 14,1 ming tonna g'alla yetishtirilib, 2015 yilga nisbatan g'alla yetishtirish 119,5 foizga ko'paygan.

2015 yilda tuman boyicha 3,4 ming tonna paxta yetishtirilgan bo'lsa, 2017 yilda 3,3 ming tonna paxta yetishtirilgan va o'tgan 2015 yilga nisbatan paxta yetishtirish kamaygan. Paxta yetishtiriladigan er maydoni esa 2015 yilda 1870 gektarni tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 1890 gektani tashkil etmoqda.

O'tgan 2017 yilda fermer va dehqon xo'jaliklarida 1018 ta yangi ish joylari yaratilgan va tuman boyicha jami yaratilgan ish joylarining 23,0 foizini tashkil etadi.

2.3.3-jadval

**Nishon tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish
ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Maydoni, ga			Yetishtirilgan mahsulot, ming tonna		
	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil
Jami ekin maydoni	15191	29417	31877	X	X	X
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	11852	26083	26502	X	X	X
Jami don va dukkakli don	11392	24533	25835	12,3	19,0	19,6
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	8285	21423	21760	6,6	12,3	14,1
shu jumladan g'alla	11093	23851	23954	11,8	15,0	14,1
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	7060	20560	20524	5,8	6,7	6,7
Kartoshka maydoni	92	112	114	3,5	3,6	4,1
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	5	12	7	1,9	2,0	2,0
Sabzavot maydoni	81	145	245	8,4	9,1	9,8
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	30	90	90	7,2	8,0	8,2
Poliz maydoni	23	182	195	2,4	2,7	3,5
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	15	175	178	2,2	2,5	2,8
Meva	2721	2721	2721	2,1	2,6	2,9
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	140	140	140	1,4	1,5	1,5
Uzum	181	181	164	0,1	1,3	1,3
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	138	138	138	0,7	0,8	0,9
Ozuqabop ekinlar-jami maydoni	85	88	1344	4,2	4,3	66,2
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	50	53	400	2,4	2,6	19,7
Texnika ekinlari –jami maydoni	3518	4357	4144	3,4	3,1	3,3
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	3467	4285	4067	3,3	3,1	3,3
<i>shu jumladan, paxta</i>	1870	1867	1890	3,4	3,21	3,3
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	1867	1867	1867	3,3	3,2	3,3

Manba: Nishon tumani hokimiyati ma'lumotlari asosida

Fermer xo'jaliklarining davlat bilan iktisodiy munosabatlari keng qamrovli bo'lib, bunda eng avvalo moliya-kredit mexanizmlari asosiy o'rinni egallaydi.

Fermer xo'jaliklarini moliya-kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash birligi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo'llash hamda kreditlashni kafolatlash darajasini rivojlantirish bilan xarakterlanadi.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini kreditlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida bir qator imtiyozlar joriy etilgan.

Fermer xo'jaligining moliyaviy natijalarini tahlil qilganimizda mahsulotlarni sotishdan sof tushum 2016 yilda 32,18 mln so'mni tashkil qilgan, 2017 yilda esa 42,91 mln so'mni tashkil qilib, mahsulotlarni sotishdan sof tushum o'tgan yilga nisbatan 10,727 mln. So'mga, 133,3 foizga o'sgan.

2.3.4--jadval

“Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining 2016-2017 yillardagi moliyaviy natijalari tarkibi, tuzilishi va dinamik o’zarishining tahlili

Ko’rsatkichlar	yillar		O’zgarish (+; -)
	2016	2017	
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	32 184	42 911	10 727
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	22 774	35 343	12 569
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr. 010 – 020)	9 410	7 568	-1 842
Davr xarajatlari, jami	8 016	5 077	-2 939
Sotish xarajatlari	2 149	2 282	133
Ma’muriy xarajatlar	5 867	2 795	-3 072
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	1 394	2 491	1 097
Umumxo’jalik faoliyatining foydasi (zarari)	1 394	2 491	1 097
Foyda solig’ini to’lagunga qadar foyda (zarar)	1 394	2 491	1 097
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	1 394	2 491	1 097

Manba: “Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining moliyaviy hisobotlari asosida

Sotilgan mahsulotlarning tannarxi esa 2016 yilda 22,77 mln so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2017 yilda 35,34 mln so’mni tashkil qilib, o’tgan yilga nisbatan 155,19 foizga oshgan. Sotilgan mahsulotlarning tannarxining o’sishi hisobiga mahsulotlarni sotishdan olinadigan yalpi foydasining kamayishiga olib kelgan. Ammo, fermer xo’jaligining davr xarajatlari, jumladan ma’muriy xarajatlarni kamatirishga erishgan va asosiy faoliyatning foydasi 2016 yilda 1,39 mln so’mni tashkil qilgan bo’lsa, 2017 yilda bu ko’rsatkich 2,49 mln so’mni tashkil etib, o’tgan yilga nisbatan 178,6 foizga o’sishiga erishilgan.

2.3.5--jadval

“Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining 2017 yilda debitorlik va kreditorlik qarzlar balansi tahlili

Debitorlik farzlar	Ming so’m	Kreditorlik qarzlar	Ming so’m
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi	18 958	Byudjetga to’lovlar boyicha qarz	20 030
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo’naklar	200	Sug’urtalar boyicha qarz	100
Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar boyicha bo’nak to’lovlari	271	Maqsadli davlat jamg’armalariga to’lovlar boyicha qarz	9 489
Boshqa debitorlik qarzlar	4 400		
Jami	23 829	Jami	29 619
Kreditorlik qarzlarining debitorlik qarzlardan ortiqchaligi	5 790	Debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlardan ortiqchaligi	-
Balans	29619	Balans	29619

Manba: “Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining moliyaviy hisobotlari asosida

Tahlil qilinayotgan “Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining 2017 yilda jami debitorlik qarzlar 23829 ming so’mni, kreditorlik qarzlar esa 29619 ming so’mni tashkil etib, kreditorlik qarzlar debitorlik qarzlariga nisbatan 5790 ming so’mni tashkil etmoqda. Debitorlik qarzlarida xaridor va buyurtmachilarning qarzi 18958 mln so’mni, mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo’naklar 200 ming so’mni, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar boyicha bo’nak

to'lovlari 271 ming so'mni, boshqa debitorlik qarzlari 4400 ming so'mni tashkil etmoqda.

O'z navbatida byudjetga to'lovlar boyicha qarz 20030 ming so'mni, sug'urta boyicha qarz 100 ming so'mni, maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar boyicha qarz 9489 ming so'mni tashkil etadi.

1 tonna xom ashyoni yetishtirish uchun 2016 yilda 989296 so'm sarflanishi bo'lsa, 2017 yilda 1049900 so'm sarflanishi rejalashtirilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan xarajatlar summasi 106,2 so'mga oshgan.

1 tonna xom ashyoni yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar tarkibida ish haqi va unga tegishli ajratmalarga jami xarajatlarning 11,3 foizini tashkil etadi. Mineral o'g'itlar esa 2016 yilda 36 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 34 foizini tashkil etmoqda. O'simliklarni kimyoviy va biologik usulda himoya qilishga 2016 yilda 3,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 2,4 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan xarajatlar salmog'i kamaygan.

2.3.6--jadval

**2016-2017 yillarda 1 tonna paxta xom ashyosini yetishtirish xarajatlari
tarkibi va dinamikasi**

T.r.	Xarajatlar turlari	2016 yil		2017 yil	
		so'm	Foiz	so'm	Foiz
1	Ish haqi va unga tegishli ajratmalarga	105927	11,3	118638	11,3
2	Mineral o'g'itlar	337468	36	356966	34
3	O'simliklarni himoya qilish	31872	3,4	25198	2,4
	sh.j;				
	a)kimyoviy usul bilan	15936	50	17849	50
	b)biologik usul bilan	15936	50	17849	50
4	Agrokimyo stantsiyalari xizmati			4200	0,4
5	Urug'lik	57182	6,1	64044	6,1
	sh.j; tuksiz urug'lik chigit	20014	35	22415	35
6	Mexanizatsiya xizmati (MTP,MMTP va qishloq xo'jalik texnikasimavjud bo'lgan boshqa xo'jalik subektlari	60932	6	66144	6,3
7	Lizing to'lovlari	44996	1,8	62994	6
8	SFU xizmati	17811	1,9	19948	1,9
9	YomM	229665	14,5	237277	22,6
10	Polietelin plyonkasi xarajatlari	5624	0,6	6299	0,6
11	Elektr energiyasi xarajatlari	18748	2	26247	2,5
12	Yagona yer solig'i	18748	2	20998	2
13	Viloyat va tuman QSXB ajratma	3750	0,4	4200	0,4
14	O'zbekiston Fermerlar Kengashiga ajratma	4687	0,5	5250	0,5
	jami	989296	100	1049900	100

Manba: Nishon tumani hokimiyati ma'lumotlari asosida

Yoqilgi moylash materiallari xarajatlari 2016 yilda 14,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilda 22,6 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilgan

nisbatan 1,6 baravarga oshgan. Boshqa xarajatlar salmog'i deyarli o'zgarmagan. Bu xarajatlarning o'zgarishi xarajatlar turlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari tayyorlov korxonalari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzganlaridan keyin kredit olish uchun ularning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka ariza bilan murojaat etishadi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari nusxalari;
- kreditga bo'lgan talabni aniqlash uchun tayyorlangan biznes-reja;
- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl).

Kreditlar qaytishini ta'minlash maqsadida, tijorat banki davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom ashyosi va g'alla yetishtirishni moliyalashtirish maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalariga berilgan imtiyozli kreditlar qaytarilishi boyicha o'zining tadbirkorlik xavfini sug'urta qilishi mumkin. Bunda, sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan sug'urta polisi kredit shartnomasida belgilangan kreditning butun qaytarish muddatiga beriladi. Sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan sug'urta puli taqdim etilayotgan kredit miqdoridan ko'p bo'lmasligi zarur.

Doimiy ravishda davlat buyurtmasini va tijorat banki oldidagi majburiyatlarini bajarib kelayotgan fermer xo'jaliklariga kreditlar qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minotsiz (ishonchli kreditlar) ajratilishi mumkin.

Tayyorlov korxonalari tijorat banklari tomonidan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini qoplash uchun berilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlarning qarzdor qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan muddatida qaytarilishi borasida kafillik berishlari mumkin. Kafillik qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Kredit shartnomasi kuchga kirgandan so'ng, keyingi ish kunidan kechiktirmasdan qishloq xo'jaligi korxonasiga ssuda hisobvarag'i ochiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining ssuda hisobvarag'idan to'lovlar faqat belgingan maqsadlar uchun naqd pulsiz shaklda (ish haqidan tashqari) qishloq xo'jalik korxonalarining to'lov topshiriqnomalariga asosan amalga oshiriladi.

Joriy yil hosili uchun etkazib berilgan moddiy-texnik resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun 2-kartotekaga kirim qilingan va belgilangan tartibda qarz oluvchi tomonidan aktseptlangan to'lov talabnomalariga muvofiq to'lovlar amalga oshiriladi.

To'lov talabnomalari qarz oluvchi tomonidan aktseptlanmagan taqdirda, to'lovlar sud qarori asosida undiriladi.

Shuningdek, «O'zneftmahsulot» aktsiyadorlik kompaniyasi, «Qishloqxo'jalik-kimyo» hududiy aktsiyadorlik jamiyatlari va MTP (mashina-traktor parklari) tuman korxonalari va tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda fermer xo'jaligining joriy va kelgusi oyda amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlariga qilinadigan xarajatlar qiymati miqdorida (o'g'itlash, shudgorlash) oldindan to'lovni amalga oshirish belgilangan taqdirda fermer xo'jaliklari ushbu xarajatlar summasini to'lov topshiriqnomalari orqali oldindan to'lovlarni o'tkazishlari mumkin.

Bunda, to'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) oylik ish haqi to'lovlari uchun agrotexkartalarda belgilangan meyorlarda;

b) qishloq xo'jalik korxonalarining mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, «O'zagromashservis» uyushmasi MTP larining xizmatlari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari, foydalanilgan elektroenergiya va urug'lik materiali qiymati uchun to'lovlarda, mablag'lar «Qishloqxo'jalikkimyo» OAJ filiallari, «O'zagromashservis» uyushmasi MTPlari, «O'zneftmahsulot» kompaniyasi, «O'zbekenergo» DAK korxonalari hamda tayyorlov korxonalarining maxsus 23210 (23220)-sonli hisob raqamlariga o'tkaziladi;

v) SIUlar (Suv iste'molchilari uyushmalari), o'simliklarni biologik usulda himoya qilish uchun biolaboratoriya va biofabrikalar tomonidan ko'rsatilgan

xizmatlar uchun to'lovlar ularning maxsus 23210 (23220)-sonli hisob raqamlariga o'tkaziladi;

g) muqobil MTPlar, fermer xo'jaliklari, «O'zkimyosanoat» davlat aktsiyadorlik kompaniyasi, «O'zdonmahsulot» AK va «O'zpaxtasanoat» uyushmasi tizimidagi korxonalar huzurida faoliyat yuritayotgan muqobil MTP mas'uliyati cheklangan jamiyatlari hamda qishloq xo'jalik texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan va ko'rsatiladigan texnika xizmatlari uchun to'lovlarda, mablag'lar ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarida ochilgan maxsus 23210 (23220)-sonli hisob raqamlariga o'tkazib beriladi.

d) boshqa tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hamda ehtiyot qismlar uchun to'lovlarda, mablag'lar ushbu tashkilotlarning talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlariga o'tkazib beriladi.

Tijorat banklar to'lovlarning ssuda hisobvarag'idan belgilangan maqsadlar va agrotexnik meyorlar boyicha amalga oshirilishini nazorat qiladi. Tijorat banklar sug'urta tashkilotlari va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tuman bo'linmalari bilan birgalikda sug'urta shartnomasi asosida har bir qishloq xo'jaligi korxonasi boyicha paxta va g'alla ekinlarining holatini va bo'lajak hosilning berilgan kreditlarning qaytarilishini ta'minlash uchun etarliligini aniqlash maqsadida doimiy monitoring o'rnatadilar.

Ekinlar (to'liq yoki qisman) mavjud bo'lmagan yoki ular ahvolining qoniqarsizligi, jumladan agrotexnik tadbirlarning kechikishi, ekin maydonlarini begona o'tlar bosib ketishi natijasida kutiladigan hosil olishning imkoni yo'qligi aniqlanganda, bu haqda bank va sug'urta tashkiloti hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tuman bo'linmalari (Fermer xo'jaliklari uyushmasining vakilligi) birgalikda uch tomonlama dalolatnoma tuzadilar. Ushbu dalolatnoma asosida bank kreditlashni to'xtatadi va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin so'ndirish choralarini ko'radi. Bu choralar kredit shartnomasida kelishilgan bo'lishi kerak. Shu bilan bir vaqtda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tuman

bo'linmalari tomonidan ushbu dalolatnoma xizmat ko'rsatuvchi tarmoq korxonalariga etkazilishi lozim.

Kreditlar va unga hisoblangan foizlar qishloq xo'jaligi korxonalarining maxsus 23210 (23220) hisob raqamlariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan, birinchi navbatda bank tomonidan memorial orderlar bilan undiriladi.

Kredit shartnomasi asosida berilgan kreditlarni qaytarish muddati etib kelganda, ularni undirib olish uchun, qarzdor — qishloq xo'jaligi korxonasining mablag'i etarli bo'lmaganda, tijorat banklari sug'urta polisi asosida sug'urta tashkilotlariga sug'urta hodisasi roy berganligi to'g'risida murojaat qiladilar.

Sug'urta to'voni, tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida tuzilgan Bosh polis asosida tijorat banklariga 5 kun muddatda to'lab beriladi.

Topshirilgan mahsulot uchun yakuniy hisob-kitoblarda tayyorlov korxonalari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalariga etkazib berilgan moddiy boyliklar qiymati va avvalgi yillar qarzlarini chegirib qolishga yo'l qoyilmaydi. Ushbu moddiy boyliklar uchun hisob-kitoblar va kreditor qarzlarni undirish ajratilgan bank kreditlari to'liq qaytarilgach, qishloq xo'jalik korxonasining hisob raqamidan o'rnatilgan tartibda to'lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foizlar kreditning amaldagi qoldig'iga har kuni hisoblab boriladi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan:

- g'alla yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar boyicha yilning iyul oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha;
- paxta xom ashyosi yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar boyicha yilning noyabr oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha undiriladi.

Bunda qishloq xo'jaligi korxonalari kreditni va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarishlari mumkin.

Ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishi xizmat ko'rsatuvchi bank rahbarlari zimmasiga yuklatiladi. Shuningdek, ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanish Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi tomonidan tekshirib boriladi.

Davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlarni belgilangan maqsadlar boyicha yo'naltirishga mansabdor shaxslarning aralashuvi qat'iy qat'iyan taqiqlanadi.

“Murodjon-Javohirjon” fermer xo'jaligi Nishon tuman hokimligida davlat royxatiga olingan va Nizomi tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlariga, meyoriy xujjatlariga va o'z Nizomiga asosan faoliyat yuritadi. tijorat bankida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida hisob raqami ochilgan. Fermer xo'jaligining asosiy faoliyati dehqonchilik bilan shug'ullanishdan iborat bo'lib, 2015 yil 5 gektar ekin maydonida paxta ekishni rejalashtirgan.

Quyidagi jadvalda fermer xo'jaligining paxta xom ashyosini yetishtirish boyicha asosiy ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

2.3.7--jadval

“Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining 2015 yilga paxta xom ashyosini yetishtirish uchun asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi

Xarajat turlari	ming so’m	foizda
Ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to’lash uchun	747,4	11,3
Mineral o’g’itlar	2248,9	34,0
O’simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini sotib olish uchun	158,7	2,4
Yoqilg’i-moylash mahsulotlarini sotib olish uchun	1494,8	22,6
Urug’lik	403,5	6,1
Lizing to’lovlari	813,6	12,3
SFU xizmati	125,7	1,9
Elektr energiyasi xarajatlari	165,4	2,5
Yagona yer solig’i	132,3	2,0
Viloyat va tuman QSXB ajratma	26,5	0,4
O’zbekiston Fermerlar Kengashiga ajratma	33,1	0,5
Boshqa xarajatlar	264,6	4,0
To’liq tannarxi	6614,4	100

Manba: “Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining biznes rejasi

Fermer xo’jaligi tomonidan taqdim qilingan biznes reja boyicha davlatga 11023,95 ming so’mlik paxta xom ashyosi sotib shundan 4 409,58 ming so’mdan ortiq sof daromad olishni ko’zlagan.

2.3.8--jadval

“Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining 2015 yilda paxta xom ashyosini ishlab chiqarishdan olinadigan natijasi

Ekin maydoni, gektar	Hosildorlik ts/ga	Ishlab chiqariladigan mahsulot mikdori, tonna	Ishlab chiqariladigan mahsulotning to’liq tannarxi, ming so’m	Olinadigan daromad, ming so’m	Moliyaviy natija, ming so’m (foyda+; zarar-)
5,0	21,00	10,50	6614,37	11 023,95	4 409,58

Manba: “Murodjon-Javohirjon” fermer xo’jaligining biznes rejasi

Fermer xo’jaligi bir gektardan hosildorlik 21 tsentner hisobidan 5 gektardan 10,5 tonna paxta xom ashyosini yetishtirish rejalashtirilgan. Ishlab chiqariladigan mahsulotning to’liq tannarxi 6614,37 ming so’mni tashkil qilib, 11023,95 ming so’m daromad olinishi rejalashtirilgan bo’lib, 4409,58 ming so’m foyda olinishi ko’zda tutilgan.

Ushbu rejalashtirilgan paxta xom ashyosini etkazib berish uchun fermer xo’jaligiga Davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan paxta xom ashyosi qiymatining 60 foizi miqdorida yillik 3 foiz ustama bilan 2016 yil noyabr oyigacha 6614, 37 ming so’mlik imtiyozli kredit ajratiladi.

Quyidagi hollarda qarzdorni bundan buyon kreditlashni to’xtatish va foizlarni hamda kredit boyicha asosiy qarzni muddatidan oldin undirish mumkin:

- kreditdan maqsadsiz foydalanilganda;
- foiz to’lovlari ko’rsatilgan muddatlarda amalda oshirilmaganda;
- qarzdorning moliyaviy ahxvoli yomonlashganda (zararlar, noliqvid balans va boshkalar) buxgalteriya hisobi lozim darajada yuritilmaganda, taqdim etilgan hisobotlarning noto’g’riligi (haqqoniy emasligi) aniqlanganda;
- mazkur shartnomaga asosan qarzdor hisobot ma’lumotlarini taqdim etmaganda, Bank nazoratidan boyin tovlaganda (bosh tortganda);

- kredit qaytarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganda.

Ekinlar (to'liq yoki qisman) mavjud bo'lmagan yoki ular ahvolining qoniqarsizligi, jumladan agrotexnik tadbirlarning kechikishi, ekin maydonlarini begona o'tlar bosib ketishi holatlari aniqlanganda, bu haqda Bank va «O'zagrosug'urta» DASKning hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tuman bo'linmalari birgalikda uch tomonlama dalolatnoma tuzadilar. Ushbu dalolatnoma asosida Bank kreditlashni to'xtatadi va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin so'ndirish choralarini ko'radi.

Kreditdan maqsadsiz foydalanish hollari aniqlanganda maqsadsiz foydalanilgan summa qarz oluvchidan 10% jarima bilan undiriladi.

Kredit berish uchun tomonidan ajratilgan kredit resurslari Bankning vakillik hisob varag'iga kelib tushgan kundan boshlab 4 kun ichida qarz oluvchi tomonidan o'zlashtirilmasa muddatida ishlatilmagan mablag'ni Moliya Vazirligiga 10% jarima undirib qaytariladi.

Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), qarzdor Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganlik va ular boyicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun, qarzdor bankka kechiktirilgan tulovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4%i miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50%idan oshmagan miqdorda penya tulaydi.

Davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla yetishtirish xarajatlariining 60 foizini imtiyozli kreditlash tizimi bir qator afzalliklarga ega bo'lishiga karamay, bu tizimning o'ziga xos kamchiliklari mavjudligi ham ko'zga tashlanmoqda. Xususan, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g'allani tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmi haniuzgacha erkinlashtirilmagan, ya'ni fermerlarga rejalashtirilgan hosil qiymatining 60 foizi miqdorida ajratiladigan 3 foizli kredit hozirgi kungacha

xarajat moddalari boyicha bo'lib ajratiladi va fermerlar uni toki yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilmaguncha mustaqil ishlatish imkoniyatiga ega emaslar.

Imtiyozli kreditlar ajratishda va yakuniy to'lovlarda hisob-kitoblarni bir-necha hisob raqamlari orqali amalga oshirilishi xo'jaliklar uchun noqulay bo'lib, ular tomonidan ortiqcha vaqt va mablag' sarflanishiga sabab bo'lmoqda.

Hisob-kitoblariiiig joriy etilgan tartibi moddiy rrsurslar etkazib beruvchi korxonalar va fermerlar o'rtasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish o'rniga, aksincha ortib borishiga olib keladi.

III bob. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatini moliyalashtirishga tijorat banklarining kreditlarini jalb etish samaradorligini oshirish yo'llari

3.1. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishdagi muammolari va ularning yechimlari.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi xukumati iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatimiz xukumati va Markaziy banki tomonidan real sektor korxonalarining faoliyatini moliyalashtirish va moliyaviy rag'batlantirishga katta e'tibor berilmoqda.


Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning mavsumiy xarakteri hamda bu bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish xarajatlari yil davomida amalga oshirilishi, uning natijalari esa, yilning oxirida qo'lga kiritilishi qishloq xo'jaligi korxonalari aylanma mablag'lari aylanish davrining cho'zilib ketishiga olib keladi va ob'ektiv ravishda qishloq xo'jaligi korxonalari aylanma mablag'larining vaqtincha etishmasligiga sabab bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni mavsumiy bo'lganligi sababli, kreditlar samarasi xam mavsum yakuni boyicha yuzaga keladi. Samaradorlikning yuqori bo'lishi ishlab chiqarishning o'zluksizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir.

Shu sababli, qishloq xo'jalik korxonalarini moliyalashtirish manbaalarini belgilash uchun ulardagi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish davrlarini xamda mablag'larga bo'lgan talab darajasining o'zgarishini aloxida xisobga olish zarur. Bu esa, xo'jaliklarning moliyaviy xolatini doimiy ravishda o'rganib borishni taqozo qiladi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan xarajatlarni moliyalashtirish asosan tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning o'z mablag'lari xisobiga amalga oshirilishi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligining xususiyatidan kelib chiqqan holda, jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larga ham ehtiyoj yuqori hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirishda xarajatlarning sarflanishi birinchi chorakda eng kam miqdorda bo'ladi yoki bu davrda mablag'larga ehtiyoj yuqori bo'lmaydi. Lekin asosiy agrotexnik tadbirlar davrida qishloq xo'jalik korxonalari aylanma mablag'larida taqchillik sezilarli darajada ortadi. Shu sababli qishloq xo'jalik korxonalari qisqa muddatli moliyalashtirish darajasi asosan yilning 2- va 3-choraklarida eng yuqori nuqtaga etadi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar jarayonining natijalari hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari hamda tarmoqning davlat iqtisodiyotida egallagan o'rnini inobatga olgan holda qishloq xo'jalik sub'ektlari hisoblanmish dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish manbalari kengayib bormoqda.



3.1.1.-rasm¹². Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat byudjetidan berilayotgan subsidiyalar to'g'risida ma'lumot (mlrd so'm)

Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat byudjetidan 2008 yilda 60 mlrd so'm subsidiya ajratilgan bo'lib, 2016 yilga kelib 200 mlrd so'm subsidiya ajratilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yilda 2008yilga nisbatan 3,33 baravarga oshgan.

¹²Статистика қўмитаси маълумотлари

Paxtani yetishtirish uchun sarflanayotgan mablag'larning samaradorligi paxta hosildorligining oshishi bilan baholashimiz mumkin. Lekin paxta hosildorligini kamayib ketishiga sabab bo'luvchi quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin:

- chigit ekishning o'z muddatida o'tkazilmasdan g'o'za nihollarining kech unib chiqishi hosildorlikni o'rtacha -3-4 ts/gacha;
- sho'rlangan maydonlarning sho'rini yuvmasdan chigit ekish yoki sifatsiz sho'r yuvish tadbirlarini o'tkazi hosildorlikni - 9 ts/gacha;
- tuproqda nam saqlash uchun boronalash tadbirlarini o'tkazilmaslik o'rtacha 3-4 ts/gacha;
- chigit ekishdan oldin tuproqning yumshatilmasligi va mola bilan tekislash tadbirlari o'tkazilmasligi -2 ts/gacha;
- umumiy chigit ekishdan oldin maydondagi kesaklarni maydalab tuproqni ekishga tayyorlamaslik o'rtacha -8 ts/gacha;
- chigit ekishdan oldin ilmiy asoslangan muddat va meyorlarda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirmaslik - 2,5 ts/gacha;
- g'o'zani oziqlantirishni barcha turdagi mineral o'g'itlar bilan 1 iyulgacha tugatmaslik natijasida -10 ts/gacha;
- yaganalash tadbirlarini kechikib o'tkazish yoki chigitni qayta ekish hosildorlikning -2-3 ts/gacha kamayishiga olib kelishi mumkin.

Paxta hosildorligini oshirish uchun qishloq xo'jalik ekinlarini dalada konturlar boyicha quyidagicha joylashtirish zarur.

Masalan fermer xo'jaligini maydoni 100 gektar 4 konturdan iborat bo'lsa almashlab ekish tizimi 1:1:1 (paxta:bug'doy:paxta) 50% paxta, 50% bug'doy nisbatda ekilishi maqsadga muvofiq va buni quyidagi jadvalda almashlab ekish tizimini amalga oshirish zarur.

2017 yilda 1 konturga 31 gektar paxta, 2 konturga 25 gektar bug'doy + takroriy ekin, 3 konturga 24 gektar bug'doy + takroriy ekin, 4 konturga 20 gektar

paxta ekilgan bo'lsa, 2015 yilda 1 konturga 31 gektar bug'doy + takroriy ekin, 2 konturga 25 gektar paxta, 3 konturga 24 gektarpaxta, 4 konturga 20 gektar bug'doy + takroriy ekin ekish zarur.

2016 yilda esa 1 konturga 31 gektar paxta, 2 konturga 25 gektar bug'doy + takroriy ekin, 3 konturga 24 gektar bug'doy + takroriy ekin, 4 konturga 20 gektar paxta ekilsa paxta hosilining oshishiga olib keladi.


3.1.1.-jadval

100 gektarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini almashlab ekish tartibi

2017 yil			
1 kontur	2 kontur	3 kontur	4 kontur
31 ga Paxta	25 ga Bug'doy + takroriy ekin	24 ga Bug'doy + takroriy ekin	20 ga Paxta
2015 yil			
31 ga Bug'doy + takroriy ekin	25 ga Paxta	24 ga Paxta	20 ga Bug'doy + takroriy ekin
2016 yil			
31 ga Paxta	25 ga Bug'doy + takroriy ekin	24 ga Bug'doy + takroriy ekin	20 ga Paxta

Manba: 2017 yil hokimlar o'qishi seminar materiallari

Dunyoda 1 kg paxta yetishtirish uchun sarflanayotgan mablag'larning mikdorini ko'radigan bo'lsak, 2000/2001 yillarda 0,25 dollarni tashkil etgan va 2015/2016 yillarda 0,52 dollarni tashkil etgan, ya'ni 2000 yilga nisbatan 0,27 dollarga ko'tarilgan.



3.1.2-rasm¹³. Dunyoda 1 kg paxta yetishtirish uchun sarflanadigan mablag' (dollarda)

Agrar sohani yanada jadal rivojlantirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarida bozor tamoyillarini to'la qaror toptirish asosida qishloq aholisining turmush darajasini keskin oshirishda qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlari boyicha ilmiy asoslangan g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, moddiy rag'batlantirish va yangiliklarni hayotga tadbqiq etish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining kreditlari qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklarining kreditlari hisobidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning joriy va investitsion xarajatlari moliyalashtiriladi. Agar qisqa muddatli bank kreditlari hisobidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning joriy xarajatlari kreditlansa, bankning va uzoq muddatli kreditlari hisobidan ularning investitsion xarajatlari moliyalashtiriladi. Shu boisdan ham, tijorat banklarining etarli darajada resurs manbalariga ega bo'lishi xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan extiyojlarini kondirishda muxim rol uynaydi.

¹³Жаҳон банки маълумотлари

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizning tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning asosiy kismini bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, ya'ni korxona va tashkilotlarga berilgan kreditlar tashkil etadi.

Kreditlashning bir marotabalik shakliga xos bulgan asosiy kamchiliklar quyidagilardan iborat:

- kreditlashning ushbu shaklida bankning kreditni mijoz tomonidan maksadli va samarali ishlatilishi ustidan nazorat kilish imkoni juda past bo'ladi;

- mijoz, ya'ni qishloq xo'jalik korxonasi mol etkazib beruvchilarning aybi bilan tovarlar uz vaqtida etkazilmay qolgan xollarda kreditdan to'liq foydalana olmay kolishi mumkin;

- bir marotabalik kreditlar korxonalarga tijorat banklarining kreditlaridan doimiy va uzluksiz tarzda foydalanish imkonini bermaydi;

- kreditlashning ushbu shakli qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatida yuzaga keladigan vaqtinchalik pul mablag'lari etishmasligini tezkor tarzda qoplash imkonini bermaydi.

Mamlakatimiz bank tizimida qishloq xo'jaligi korxonalarini kredit liniyasi ochish yuli bilan kreditlash asosan ularning faoliyatini xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishda qo'llanilmoqda.

Jaxon tiklash va tarakkiyot banki tomonidan ajratilgan ushbu kredit buyicha asosiy qarz mikdorini kaytarish davri 2000-2015 yillarni uz ichiga oladi.

Shunisi xarakterliki, kredit liniyasi ochish yuli bilan korxonalarni kreditlash shakli quyidagi muhim afzalliklarga ega:

- kreditlashning ushbu shakli korxonalarni, shu jumladan, qishloq xo'jalik korxonalarini tijorat bankiga xar safar kredit surab murojaat kilish zaruriyatidan xalos kiladi, chunki bunda korxonaga bank tomonidan kreditlash limiti belgilab qoyiladi va korxona mazkur limit doirasida bir necha marotaba kredit olish huquqiga ega bo'ladi;

-qishloq xo'jaligi korxonalari kredit liniyasi ochish yuli bilan kreditlanganda ular kreditning fakat ishlatilgan kismi uchun foiz tulaydi. Bu esa, ularning foizli xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi;

-tijorat banklari mazkur kreditlash shaklida berilgan kreditlarni ishlatilishi ustidan samarali nazorat olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni korxona tomonidan kredit shartnomasida kuzda tutilgan shartlarni buzilishiga yul qoyilgan xollarda kredit liniyasi vaqtinchalik yopib qoyilishi mumkin.

Mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yunalishlaridan biri kichik biznesni hamda dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatimizning qishloq xo'jaligida dehqon va fermer xo'jaliklarini bank kreditlari yordamida rivojlantirish masalalariga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Qishloq xo'jaligini kreditlash murakkab sanaladi, chunki bu yerda ishlab chiqarish, mahsulot narhlarining o'zgaruvchanligi, past daromad va yuqori havf-hatar darajasi, ishlab chiqarish davrining uzunligi va investitsiyadan qaytimi nisbatan kichikligi mavjud.

O'tish iqtisodiyotidagi ko'pchilik mamlakatlar qishloq xo'jaligini kreditlash boyicha bir biriga o'xshash bo'lgan chora-tadbirlarni qo'llashdi:

- ustama foizning subsidiya bilan ta'minlanishi;
- bank ssudalariga davlat kafolatining berilishi;
- agrar tarmoq uchun mahsus kredit institutlarining barpo etilishi;
- qarzlarni kechirish yoki tarkibini o'zgartirish.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini bank kreditlari hisobidan moliyaviy rag'batlantirishda qishloq xo'jaligiga berilgan bank kreditlarini xukumatning kafolatlari bilan ta'minlash usulidan foydalaniladi. Bunda tijorat banklarining qishloq xo'jalik korxonalariga berilgan kreditlari xukumatning kafolati bilan ta'minlanadi va kreditlarning kaytmagan kismi Davlat byujetining mablag'lari hisobidan koplanadi.

Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish borasida yuqorida keltirilgan qator manbalar, xozirgi kunda xo'jaliklar ishlab chiqarishidagi uzluksizlikni to'liq

ta'minlay olmayappti. Xususan, xukumat tomonidan faqatgina davlat buyurtmasi bo'lgan maxsulotlar moliyalashtirilmoqda. Boshqa turdagi ekinlar esa tijorat banklari tomonidan cheklangan resurslar doirasida moliyalashtirilmoqda. Xo'jaliklar joriy va kapital xarajatlarga, o'z resurslariga xamda moddiy texnik bazaga ega bo'lmaganligi sababli agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish imkoniyatini chegaralab qoymoqda, natijada ular tomonidan yetishtirilayotgan maxsulot miqdori va sifati past bo'lmoqda. Belgilangan xosildorlikka, samaradorlikka, foyda miqdoriga erishish cheklanmoqda.

3.2. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlaridan foydalanishni takomillashtirish yo'llari

Iqtisodiy taraqqiyotning jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar tarmoqning jadal o'sishi mamlakatda umumiy iqtisodiyotning o'sishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi korxonalari tashkil topishining dastlabki bosqichida korxonani tashkil etayotgan mulkdor yoki agar ular bittadan ortiq bo'lsa, muassislarning sarmoyalariga tayaniladi. Odatda, korxona mulkdorlari uning tashkil topishi jarayonida to'lanishi lozim bo'lgan turli to'lovlarni o'z sarmoyalari hisobidan amalga oshiradilar.

Korxonalar ishlab chiqarishni tashkil etishga mablag'lar jalb etishda, birinchi navbatda, o'zlarida mavjud mol-mulk va jamg'armalarga murojaat etishga harakat qiladilar. Chunki, bu korxona mustaqilligini ta'minlashning eng maqbul yo'lidi. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishlar boyicha ishlab chiqarilayotgan chora-tadbirlar avvalo quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilmog'i lozim:

Birinchi, qishloq xo'jaligi xom ashyosini chuqurroq qayta ishlash, ularni tayyor mahsulot darajasiga etkazish, yangi qayta ishlovchi quvvatlarni yaratish, keng miqyoslarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, trikotaj, to'qimachilik, tikuvchilik sanoatini, sermehnat tarmoqlarni rivojlantirish, tayyor

buyumlarning xillarini ko'paytirish, ularni tashib keltirish va eksportni oshirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash texnologiyasi juda orqada qolganligi tufayli har yili kartoshka, karam, lavlagi, sabzi va boshqa sabzavot va mevalarning bir qismi isrof bo'lmoqda.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda banklarning faolligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini banklar tomonidan kreditlash hajmini oshirish maqsadida tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun quyidagi aniq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: qishloq xo'jaligini kreditlash bilan shug'ullanayotgan tijorat banklarining muddatli va jamg'arma depozitlarini majburiy zahira ajratmasidan ozod qilish yoki ularga nisbatan imtiyozli zahira stavkalarini joriy qilish lozim; qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlash va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish boyicha ixcham texnologiya bilan jixozlangan kichik va o'rta korxonalarni barpo etish lozim.

2. Respublikamizning yirik tijorat banklarini qishloq xo'jalik korxonalariga beradigan faktoring kreditlarining hajmini oshirish lozim.

Buning natijasida qishloq xo'jalik korxonalarining debitor-kreditor qarzdorligini sezilarli darajada qisqartirish, ularning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan faktoring operatsiyalari moliyalashtirish asosiga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin.

3. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jalik korxonalarini moliyalashtirishda kreditlash shakllaridan to'liq foydalanishni ta'minlash lozim.

Kreditlash shakllaridan to'liq foydalanish bank kreditlaridan qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatida foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

4. Qishloq xo'jalik korxonalariga tijorat banklari tomonidan hisob-kitob xizmati ko'rsatishni takomillashtirish lozim.

Buning uchun, avvalo, qishloq xo'jaligi korxonalarining to'lov operatsiyalarini amalga oshirish jarayoniga banklarning orderli cheklarini joriy qilish lozim. Banklarning orderli cheklari qishoq xo'jalik korxonalarining kreditor qarzdorligini sezilarli darajada qisqartirish, aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida jalb qilinadigan bank kreditlari miqdorini kamayirish imkonini beradi. Shu bilan birga islohotlarni amalga oshirish jarayonida paydo bulayotgan bir qator muammolar xam mavjudki, ularni bartaraf etish, paxtachilik xo'jaliklarining iqtisodiy baquvvat xo'jalik yuritish sub'ektlariga aylanishiga imkon yaratadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Dehqon-fermer xo'jaliklari ixtisosligini hisobga olgan xolda, xo'jalik ishlab chikilgan aylanma mablag'lar meyorlariga binoan, aylanma mablag'lar talabi hisob-kitobi biznes-rejalarda kuzda tutiladi. Ushbu hisob-kitoblarga asosan talablar mablag' bilan ta'minlanmagan kismiga imtiyozli kreditlar berish mexanizmini yaratish zarur. Ayniqsa, ish xaki, urug'lik ugit va yonilgi-moylash materiallari bilan uz vaqtida ta'minlash masalasi imtiyozli kreditlarga bo'lgan talabni oshirmokda. Shu bilan birga, xo'jaliklarga me'eridan ortik; aylanma mablag'lar paydo bo'lishining oldini oluvchi tartib ishlab chikish zarurati paydo bulmokda.

2. Paxta yetishtirishga ajratilayotgan bo'nakning asosiy qismini olishgungacha berilishi va yig'im-terim davrida ajratilayotgan mablag'lar tarkibida nafakat terimchilar balki, terimga xizmat kursatuvchilar uchun xizmat Haqini kuzda tutish maqsadga muvofiq. Chunki hosilning taqdiri asosan yig'im-terimgacha bulgan davrda hal bo'ladi.

3. Hozirgi kunda paxtachilik qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy ahvolini yaxshilash masadida ekinlar vegetatsiyasi davrida ularni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlab borish zarur. Shuningdek davlat buyurtmasidan tashqarida bulgan kishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda ish haki to'lash uchun imtiyozli kredit tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

4. Qishloq xo'jaliga korxonalariga etkazib berilaetgan mineral o'g'itlarning iste'molchilargacha bo'lgan jarayondagi harakatini ta'minlashda kimyo zavodlarni har bir viloyatda savdo uylari shaxobchalarini rivojlantirish muhim o'rin tugadi.

5. Paxtachilik, donchilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan almashlab ekish tizimini joriy etish zarur. Ularning o'z ehtiyojlari va bozor uchun sabzavot, poliz, kartoshka va boshka mahsulotlar yetishtirishi uchun, shuningdek paxta xosiddorligini oshirishga manfaat tug'dirish lozim.

Kechiladigan qarzlar bevosita ulardan kechish kurinishida emas, balki eng ko'p zarar keltiruvchi mahsulotlar (davlat buyurtmasi doirasidagi) uchun belgilanayotgan baholarga qo'shimchalar sifatida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bu vaziyat mahsulot yetishtiruvchi dehqonlarni boqimandalik kayfiyatidan xalos etadi.

Xulosa va takliflar

1. Agrosanoat majmui tarmoqlari faoliyatini, xususan qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklari kreditlaridan foydalanish boshqa tarmoqlar va sohalarga nisbatan kredit mablag'larini jalb qilishda va kreditlarni qaytarishda o'z xususiyatlariga ega. Shunday ekan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini bozor munosabatlari talablariga va mavsumiylik xarakterlariga mos holda takomillashtirib borish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali moliyalashtirishning asosiy sharti hisoblanadi.

2. Agrosanoat majmui tarmoqlari faoliyatini kreditlash tizimini takomillashtirilishi iqtisodiy jihatdan, ijtimoiy jihatdan va ekologik jihatdan ijobiy natijalarga olib keladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi moliyalashtirishda imtiyozli kreditlardan foydalanish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va rivojlanishining ichki imkoniyatlari to'liq ochilmagan. Qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish, qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni joriy qilish aynan qishloq xo'jaligida faoliyat xususan moliya kredit munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan, hali to'liq ishlamayotgan imkoniyatlar kiradi.

4. Qishloq xo'jaligining boshqa sohalaridan farqli ravishda o'zga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shunga muvofiq ravishda xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilma tarmoqlarini tashkil etishda mavjud shart-sharoitlar albatta hisobga olinishi kerak. Qishloq xo'jaligining mavsumiylik xususiyatidan kelib chiqqan holda, ya'ni ekin ekish, sug'orish, o'g'itlash, agrotexnika, hosilni yig'ib olish va yerlarni keyingi yil mavsumiga tayyorlash ishlarining o'z vaqtida bajarilishi lozim, shunga mos ravishda xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmoqlari faoliyatida qisqa mavsumiylik xususiyati mavjud: tabiiy-biologik sharoitning ta'siri natijasida, ob-havo iqlimining o'zgarib turishi (qurg'oqchilik yoki yog'ingarchilik va boshqa shu kabi holatlar) natijasida ayrim ishlab chiqarish

infratuzilma xizmatlariga bo'lgan talab turli mintaq va davrlarda turlicha bo'lishi va ularning o'zgarib turishi.

5.O'tgan davr mobaynida qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar natijasida tub tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan,

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning mukammal huquqiy asoslari yaratildi;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mulkchilik va unga mos xolda xo'jalik yuritish shakllari barpo etildi, tarmoqda istiqbolli xo'jalik yuritish shakli sifatida fermer va dehqon xo'jaliklarini faoliyat yurtishi uchun optimal shart-sharoitlar yaratildi;

- qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yerga egalik qilish va undan foydalanish munosabatlari takomillashtirildi;

- aholini o'zimizda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlab borishga qaratilgan mustaqil agrar siyosat ishlab chiqildi va u izchillik bilan amalga oshirilmoqda;

- mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va xizmat ko'rsatishda bozor tamoyillari samarali amal qilmoqda.

Fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini kreditlash tizimini takomillashtirilishi mohiyati va ahamiyatiga ko'ra bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishni yozish natijalari asosida quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq deb oylaymiz:

6.Barcha viloyatlar boyicha sotib olinadigan paxta tolasi hosiliga bir hil narx to'langan. Bizning fikrimizcha bunday holat qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatuvchi fermer va dehqon xo'jaliklarini to'liq rag'batlantirmaydi. Chunki turli viloyatlar turli tabiy va biologik sharoitga ega. Shu sababli ularning qilgan sarf xarajatlarini to'liq va to'g'ri qoplash maqsadida paxta narxini tabaqalashtirilsa,

ya'ni ularning tabiiy iqlim va boshqa sharoitlarini hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

7. Agrosanoat majmui tarmoqlari subyektlarini moliyaviy mablag'lar bilan to'liq ta'minlash maqsadida ularga beriladigan boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga tarqatiladigan kredit resurslari miqdorini ko'tarish zarur. Shu bilan birga mijozlarga boshlang'ich sarmoya miqdorini qisqa minimal ish haqi miqdoriga qarab emas balki aniq bir erkin almashadigan batqaror valyutaga asoslanib belgilansa va uning miqdorini mikrokredit miqdoriga tenglashtirilsa bank kreditlariga bo'lgan raqobat yana oshar edi. Bu esa o'z navbatida banklarning qiziqishini ko'tarilishga olib kelgan bo'lar edi.

8. Fermer xo'jaliklari bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va mahsulotni qayta ishlovchi korxonalar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish, tomonlar majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga erishish;

9. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini va ushbu mablag'lardan fermerlarni erkin foydalanishini ta'minlash asosida qishloq xo'jalik korxonalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilashni rag'batlantirish

Ushbu muammolarning hal etilishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi barcha tuzulmalarni moliyaviy axvolini yaxshilanishiga, har bir subyektning moddiy maifaatdorligini ta'minlash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: "Adolat".2015 yil.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. Xalq so'zi, 1998 yil 6-iyun.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. Xalq so'zi, 1998 yil 6-iyun.
- 4.O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: O'zbekiston, 1995.
- 5.O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, T.: O'zbekiston, 1996.
- 6.O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonun, T.: O'zbekiston, 2006 yil 25 avgust.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli Farmoni.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 31 dekabrda "Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-2165-sonli Farmoni (o'zgartirishlari bilan birga).
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 16 fevraldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kirish to'g'risida"gi 10, 288-V-2-sonli qarori.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2011 yil 23 fevraldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari

tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kirish to'g'risida"gi 8, 1/2-sonli qarori.

11.O'zbekiston Respublikasi qishloq va so'v xo'jaligi vazirining 2017 yil 2 dekabrda 10-sonli boyrug'i bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi korxonalariga mineral o'g'itlarni etkazib berish va ular uchun hisob-kitob qilish to'g'risidagi nizom".

12.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank Boshqaruvining 2007 yil 13 martda 30, 288-V-son qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 30, 288-V-son qarori.

13.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank Boshqaruvining 2007 yil 13 martda 30, 288-V-son qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi nizom".

14.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 24 oktabrda 419 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi daromad (foyda)larini taqsimlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom".

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 yil 1 fevralda, PQ-2750 –son Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 7 fevral, 8 fevral //Xalq so'zi.

17. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak,Xalq so'zi, 2017yil,16 yanvar.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, Toshkent, 2017 yil, 9 dekabr
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Toshkent, 2017 yil, 22 dekabr
-
20. Abdug‘aniev A., Abdug‘aniev A.A. Qishloq xo‘jaligi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik, -T.: Adib nashriyoti, 2011.
21. Murtazoev O. Agrosanoat majmuasi iqtisodiy samaradorligi. –T.: Fan, 2007.
22. Hakimov R. va boshqalar. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti.-T.: O‘zbekiston yuzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004
23. Salimov B., Yusupov M. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab quvvatlash. Ilmiy monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2011.
24. Boboqulov T. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini kreditlash amaliyoti // Bozor, pul va kredit. – T., 2006. - № 12.
25. Saidakbarov D.X., Achilov M.U. Moliyaviy barqarorlik davr talabi. Agrosanoat majmui tarmoqlarida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, I qism, T.: TDAU matbaa nashriyoti, - 2017.
26. Sattarqulov O.T., Yusufaliev O.A., Turdiqulova Sh.O. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini innovatsion rivojlanish mexanizmi. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi, T.: TDAU, 2017 yil, 1(55) soni.
27. Shodmonov E., Hamroev O. Agrar islohotlarni amalga oshirishda banklarning roli // Bozor, pul kredit. №9-10, 2002. -B.6-7.
28. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining statistik to‘plami. Qishloq xo‘jaligi. 2017 yil.
29. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi 2016-2015 yillardagi sonlari.
30. “Ipoteka bank” aktsiyadorlik tijorat bankinining hisobot materiallari.
31. Bank axborotnomasi. 2016-2015 yillar sonlari,

- 32.Nishon tumani hokimiyati hisobot materillari.
- 33.Murodjon-Javohirjon fermer xo'jaligi hisobot materiallari
- 34.<http://www.tdiu.uz>
- 35.<http://www.lex.uz>
- 36.<http://www.stat.uz>
- 37.<http://agro.uz>

